2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 202 (1801), 2026-yil 29-sentabr, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

MAKTAB TA’LIMIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARI, OLIYGOH VA KORXONALAR HAMKORLIGIDA DUAL TA’LIM JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-sentabr kuni maktab ta’limida yangi avlod darsliklarini joriy etish, oliygohlar va korxonalar hamkorligida dual ta’limni tashkil qilish, shuningdek, Lyaonin pedagogika universitetining O‘zbekistondagi filiali faoliyatini yo‘lga qo‘yish yuzasidan taqdimotlar bilan tanishdi.

Yangi O‘zbekiston maktab bitiruvchisi portretida bilim bilan bir qatorda zamonaviy ko‘nikmalar, axborot texnologiyalarini puxta egallash, ijodiy va mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish qobiliyati muhim o‘rin tutadi. Darsliklar va ta’lim mazmunini yangilash ishlari ana shu maqsadga qaratilgan.

Yangi o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda xalqaro tajribaga murojaat qilindi. Boshlang‘ich sinf darsliklari Finlyandiya ta’lim alyansi sertifikatsiyasidan o‘tgan, 5-7-sinflarning matematika, fizika, kimyo va biologiya darsliklari Singapur darsliklari asosida ishlab chiqildi.

Yangi yondashuvda o‘quvchining har bir sinf yakunida nimani bilishi va bajara olishi aniq belgilanadi. Ta’lim standarti, o‘quv dasturi, darslik va baholash o‘zaro bog‘liq holda shakllantirilib, mavzularning yoshga mosligi, izchilligi hamda bilimni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga e’tibor qaratiladi. 2027-yilga qadar jami 1 ming 342 nomdagi darslik va o‘quv-metodik materialni tayyorlash rejalashtirilgan.

Darsliklarda tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar o‘rin olmoqda. Bola tayyor javobni eslab qolish bilan cheklanmay, savol berishi, ma’lumotni tahlil qilishi, o‘z fikrini asoslashi va birgalikda yechim topishi ko‘zda tutilgan.

O‘quv materiallarida kasbga yo‘naltirish ham alohida o‘rin egallaydi. Ayni yo‘nalishda 255 ta dars ishlab chiqilgan bo‘lib, ular bolalarga o‘z qiziqishlarini anglash va kelgusida kasbni ongli tanlashga yordam berishga qaratilgan. Darsliklardagi qahramonlar orqali do‘stlik, mas’uliyat, jasorat va hurmat kabi qadriyatlar ham bolalarga yaqin misollarda ochib beriladi.

Ekologik savodxonlikka oid 300 dan ortiq mavzu suvni tejash, tabiatni asrash va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Moliyaviy savodxonlik bo‘yicha pulni hisoblash, tejash, jamg‘arish hamda xaridni rejalashtirish, raqamli savodxonlik bo‘yicha esa internetdan foydali va xavfsiz foydalanish masalalari qamrab olingan.

Taqdimotda yangi darsliklarning samarasi o‘qituvchining ular bilan ishlashga tayyorligiga bevosita bog‘liq ekaniga alohida e’tibor qaratildi. Shuning uchun o‘zgarishlar maktabgacha ta’limdan boshlab pedagoglarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va o‘quvchilar bilimini baholashgacha bo‘lgan jarayonni qamrab olmoqda.

Xususan, “Ilk qadam” dasturi asosida bolalarning nutqi, tafakkuri, muloqot va ijodiy qobiliyatlarini birinchi sinfga qadar rivojlantirish yo‘lga qo‘yilgan. Pedagogika oliygohlarida yangi avlod o‘qituvchilarini tayyorlashga kirishilgan. Pedagoglar uchun tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlikka asoslangan darslarni tashkil etish bo‘yicha maxsus o‘quv modullari ishlab chiqilgan.

Malaka oshirish dasturlari ham yangi darsliklar mazmuniga moslashtirildi. Shu asosda 110 ming nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi malaka oshirdi. Singapurlik hamkorlar bilan 121 nafar master-trener va 739 nafar murabbiy-o‘qituvchi tayyorlanib, ular orqali 90 ming nafar pedagog o‘qitildi.

Darslarda o‘quvchini mavzuga qiziqtirish, mustaqil tadqiq etishga undash, tushuntirish, bilimni qo‘llash va natijani baholashga asoslangan usullarni kengaytirish ko‘zda tutilmoqda. Videodarslar, animatsiya, audiomateriallar va interaktiv topshiriqlar ham o‘qituvchi hamda o‘quvchi uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Pedagoglarning kasbiy o‘sishini baholash va rag‘batlantirish mexanizmlari takomillashtirildi. Kasbiy sertifikatlashda o‘qituvchining fan bo‘yicha bilimi bilan birga pedagogik tayyorgarligi ham baholanmoqda.

Shuningdek, yangi ta’lim mazmuniga mos, aniq mezonlarga asoslangan baholash tizimi 5 mingta maktabda joriy etildi. Bu o‘quvchining faqat ma’lumotni yodlaganini emas, balki uni tushunishi va qo‘llay olishini ham baholashga qaratilgan.

Davlatimiz rahbari darslikni ishlab chiqishning o‘zi yetarli emasligini, yangi mazmunni ta’lim jarayoniga samarali joriy etish uchun pedagoglar tayyorgarligi, o‘qitish usullari va baholash tizimi birgalikda takomillashtirilishi zarurligini ta’kidladi hamda mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

Iqtisodiyot tarmoqlariga ish jarayonini biladigan, zamonaviy ko‘nikmalarga ega mutaxassislar zarur. Shu maqsadda talabaning oliygohdagi nazariy ta’limini korxonadagi amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Bundan uch oy avval o‘n nafar rektor Germaniyaga dual ta’lim tizimini o‘rganish uchun yuborilgan edi. Ushbu mamlakat tajribasida bitiruvchilarning 70-75 foizi o‘zi amaliyot o‘tagan korxonada ishlab qolmoqda. Taqdimotda Germaniya tajribasini mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish va bu jarayonda korxonalarning kadrlar tayyorlashdagi ishtirokini kuchaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekistonda ham mazkur yo‘nalishda amaliy tajriba shakllanmoqda. Jumladan, Andijon viloyatida 11 ming nafar talaba 2 mingta korxonada dual ta’lim asosida amaliyot o‘tamoqda. Davlatimiz rahbari barcha rektorlarni Andijonga yuborib, ushbu tajribani joyida o‘rganishni topshirdi. Germaniyada bo‘lgan rektorlar hududlar hokimlariga biriktirilib, dual ta’limni tashkil etish bo‘yicha aniq strategiya va ilmiy asoslangan takliflar tayyorlaydi.

Uchinchi va to‘rtinchi bosqich talabalarining kamida 80 foizini, ya’ni 185 ming nafar yoshni dual ta’lim bilan qamrab olish maqsadi belgilandi. Dastlab muhandislik, ishlab chiqarish, qurilish va qishloq xo‘jaligi kabi sohalarga ustuvorlik berish taklif etilmoqda. 2027/2028-o‘quv yilida ushbu shakldagi ta’limga 75 ta oliygoh va 3,5 mingta korxonani jalb qilib, 12,5 ming nafar talaba uchun o‘qish va amaliyotni birgalikda tashkil etish rejalashtirilgan.

Yangi modelda oliygoh, korxona va talaba o‘rtasidagi munosabatlar shartnoma asosida yo‘lga qo‘yiladi. O‘quv dasturi korxona ehtiyojiga moslashtirilib, talabaga ish joyida malakali murabbiy biriktiriladi. Amaliyot o‘qish bilan bir vaqtda yoki soha xususiyatidan kelib chiqib alohida davrda tashkil etilishi mumkin.

Talabalarni amaliyotga qabul qilgan, ular uchun o‘qish sharoitini yaratgan va keyinchalik ishga joylagan korxonalarni rag‘batlantirish choralari ham taqdimot qilindi.

Xususan, talabaga to‘langan ish haqining 50 foizini subsidiya sifatida qoplash, bojxona to‘lovlari va amortizatsiya bo‘yicha imtiyozlar berish, 25 nafardan ortiq talabani amaliyotga olgan korxonalarga davlat xaridlarida preferensiyalar qo‘llash taklif qilinmoqda. Bunday qo‘llab-quvvatlashni inson omilini kamaytirgan holda raqamli platforma orqali amalga oshirish zarurligi ta’kidlandi.

Shuningdek, dual ta’limni samarali tashkil etgan korxonalar va oliygohlarni rag‘batlantirish uchun tanlov o‘tkazish taklifi ham ko‘rib chiqildi. Bunda talabalarning qamrovi, ish haqi, o‘zlashtirishi va bitiruvchilarning bandligi asosiy natija sifatida baholanadi.

Taqdimot davomida Xitoyning Lyaonin pedagogika universitetining O‘zbekistondagi filiali faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar ham ko‘rib chiqildi. Mazkur tashabbus xitoy tilini biladigan kadrlar tayyorlash, oliygohlar, texnikumlar va maktablarda uni o‘qitishni kengaytirishga qaratilgan. Lyaonin universiteti Xitoyning pedagogika yo‘nalishidagi yetakchi oliygohlaridan biri bo‘lib, ayniqsa, psixologiya, xitoy tili filologiyasi va ta’lim fanlari bo‘yicha katta tajribaga ega.

Xiva shahrida joylashgan filialda xalqaro xitoy tili ta’limi, xalqaro biznes, turizm boshqaruvi va sun’iy intellekt yo‘nalishlari ochiladi. Ta’lim o‘zbek, xitoy va ingliz tillarida olib boriladi, bitiruvchilarga O‘zbekiston va Xitoyda tan olinadigan diplom beriladi. Jarayon 2026/2027-o‘quv yilida boshlanishi rejalashtirilmoqda.

Filialning mahalliy oliygohlar bilan akademik hamkorligi, talabalar va pedagoglar almashinuvi hamda qo‘shma ilmiy tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish masalalari ko‘rib chiqildi. Xitoy tajribasi asosida texnikumlar dasturlarini takomillashtirish, informatika o‘qituvchilari uchun sun’iy intellekt bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish ham ko‘zda tutilmoqda.

Davlatimiz rahbari dual ta’limni hududlardagi korxonalarning kadrlarga bo‘lgan aniq ehtiyoji bilan bog‘lash, Lyaonin universiteti filialida esa ta’lim sifati va qabul jarayonlarini puxta tashkil etish zarurligini ta’kidladi. Mas’ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

46-BUTUNJAHON SHAXMAT OLIMPIADASI VA 3-PARASHAXMAT OLIMPIADASI G‘OLIBLARI VA ISHTIROKCHILARINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda, qadimiy Samarqand shahrida ilk bor o‘tkazilgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi va 3-Parashaxmat olimpiadasida muvaffaqiyatli qatnashib, o‘zining yuksak professional mahorati, aql-zakovati, iroda va matonatini yaqqol namoyon etgani, dunyoning 200 dan ziyod davlatidan kelgan eng kuchli shaxmatchi va grossmeysterlar o‘rtasida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, Yangi O‘zbekistonning xalqaro nufuzi va shon-shuhratini oshirishga munosib hissa qo‘shgani, shuningdek, respublikamizda sportni keng ommalashtirishda shaxsiy namuna ko‘rsatib kelayotgani, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda milliy g‘urur va vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish borasidagi katta xizmatlari uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni bilan

Madaminov Muxiddin Baxodirjon o‘g‘li — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi” faxriy unvoni bilan

Abdusattorov Nodirbek Fazliddin o‘g‘li — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

Voxidov Shamsiddin Pulat o‘g‘li — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

Yakubboyev Nodirbek Murodbek o‘g‘li — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozi” faxriy unvoni bilan

Kasimjanov Rustam Mashrukovich — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi bosh murabbiysi

Shermuhammadov Samandar Nurulla o‘g‘li — Parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi murabbiysi

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan

Sindarov Komil Oydinovich — O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi raisi o‘rinbosari

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan

Sindarov Javohir Sanjarbekovich — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

“Do‘stlik” ordeni bilan

Mo‘minova Nafisa Alisherovna — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston ayollar milliy terma jamoasi bosh murabbiysi

Sattarov Bobir Muxamadi o‘g‘li — O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi bosh kotibi

Talipov Rashid Azatovich — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining sport yo‘nalishi bo‘yicha mas’ul xodimi

“Mardlik” ordeni bilan

Vaxidov Jaxongir Tairovich — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

Zaynidinov Sirojiddin Savranbekovich — Parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zosi

Kakishova Selbi Saparbay qizi — Parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zosi

Kimsanboyev Axadxon Azizxon o‘g‘li — Parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zosi

Mamarajabov Sardorbek Zohidjon o‘g‘li — Parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zosi

Shayusupov Marsel Vyacheslavovich — Parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zosi

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Abdisalimov Abdimalik Boxodir o‘g‘li — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

Azizov Komiljon Ikromovich — O‘zbekiston shaxmat federatsiyasining axborot texnologiyalari va shaxmat metodikasi bo‘yicha mutaxassisi

Begmuratov Humoyun Xusniddinovich — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

Mardonov Javlon O‘tkir o‘g‘li — O‘zbekiston shaxmat federatsiyasining axborot texnologiyalari va shaxmat metodikasi bo‘yicha mutaxassisi

Nig‘matov Ortiq Ravshan o‘g‘li — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

Suyarov Muxammadzoxid Shaxriyor o‘g‘li — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Djumayev Baxtiyor Melikulovich — O‘zbekiston shaxmat federatsiyasining musobaqalarni tashkil etish bo‘yicha mutaxassisi, sharhlovchi

Imomqo‘ziyeva Nilufarxon Nodirbek qizi — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston ayollar milliy terma jamoasi a’zosi

Karimova Guldona Abubakir qizi — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston ayollar milliy terma jamoasi a’zosi

Omonova Umida Shuhrat qizi — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston ayollar milliy terma jamoasi a’zosi

Toxirjonova Gulruxbegim Alisher qizi — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston ayollar milliy terma jamoasi a’zosi

Xamdamova Afro‘za Akbarovna — Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston ayollar milliy terma jamoasi a’zosi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2026-yil 28-sentabr



MANGU E‘ZOZGA MUNOSIB KASB

Yurtimizda ustoz-murabbiylik azaldan e’zozlab kelingan. Ta’lim-tarbiyaga e’tibor kuchli bo‘lgani uchun ham xalqimiz orasidan jahonga mashhur ko‘plab siymolar, olimu ulamolar, odil va donishmand hukmdorlar, ma’rifatparvar, mutafakkir ijodkorlar yetishib chiqqan. Muallimlar bor bilimi va quvvatini shogirdlarning yetuk inson bo‘lishi, har tomonlama mukammal bilimu fazilatlarga ega bo‘lishiga sarflaydi.

Davomi 5-betda

MUSTAQIL TARAQQIYOT YO‘LIDA MILLIY YUKSALISH SARI DADIL ODIMLAYOTGAN YANGI O‘ZBEKISTON

Yaqinda mustaqilligimizning o‘ttiz besh yilligini Yangi Toshkent hududida qad rostlagan muhtasham maydonda katta tantana bilan nishonladik. Bayram dasturidagi ulug‘vor va jo‘shqin chiqishlar barchamizning qalbimizdagi g‘urur va iftixorni oshirdi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari nutqida aytilgan hayotbaxsh g‘oyalar, yangi tashabbuslar xalqimiz kuch-qudrati, bunyodkorlik salohiyatining amaliy ifodasi bo‘ldi.



Ha, Prezidentimizning nutqi mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lini chuqur sarhisob qilish bilan birga mamlakatimizning kelgusi 10-yillik rivojlanish yo‘lini belgilab bergani bilan ham ahamiyatli. Shu bois, mazkur nutq yurtdoshlarimizni yangi marralar sari birlashtiradigan, yutuqlarimizni yanada mustahkamlab, kelajakka ishonch bilan intilishga undaydigan muhim siyosiy va ma’naviy dastur sifatida e’tirof etilmoqda.

Belgilangan ustuvor yo‘nalishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar va ko‘zlangan yuksak marralarning barchasi, avvalo, inson manfaati va xalq farovonligini ta’minlashga qaratilgan. Bu ezgu maqsadlar bizni yanada qudratli va farovon kelajak sari yetaklaydi. Davlatimiz rahbarining **“Kelgusi o‘n yillik biz uchun milliy yuksalish davri bo‘ladi”** degan fikri bu yo‘lda barchamizga ishonch bag‘ishlab turibdi.

Ushbu fikrning ma’nosi juda keng va teran. Boisi, milliy yuksalish faqat iqtisodiyotimiz o‘sib borayotgani yoki yangi-yangi binolar qad ko‘tarayotgani emas, avvalo, insonning yuksalishi, hayoti va imkoniyatlari yaxshilanishi demakdir. Shu nuqtayi nazardan, kelgusi yillarda asosiy e’tibor odamlarning bilim va kasb egallashi, sog‘lom va uzoq umr kechirishi, zamonaviy texnologiyalar asosida yangi ish o‘rinlari va munosib daromad manbalari yaratilishiga qaratiladi.

Shu ma’noda, bularning barchasi biz — xalq vakillari zimmasiga alohida mas’uliyat yuklaydi, albatta. Xususan, milliy maqsadlarning mustahkam huquqiy asoslarini yaratish, ularning hududlardagi ijrosiga ko‘maklashish, odamlarni o‘ylantirayotgan masalalarni davlat siyosati darajasiga olib chiqish kabilar bundan buyon ham parlament faoliyatining asosiy vazifasi bo‘lib qoladi. Ayni shu jarayonda Senatning hududiy vakillik palatasi sifatidagi o‘rni yanada yaqqol namoyon bo‘lishiga erishmog‘imiz darkor.

Istiqlolning ma’naviy tayanchi va inson qadri

Prezidentimiz nutqida mustaqilligimizning tarixiy ildizlari uch ming yildan ziyod davlatchilik an’analari bilan bog‘liq holda talqin etildi. Zero, O‘zbekistonning yangilanish va taraqqiyot yo‘li davlatchilik tajribasi, ilm-fan va ma’rifat an’analari, milliy qadriyatlar hamda ozodlikka intilish tuyg‘usi bilan uzviy bog‘liq.

Yurtimiz zaminida shakllangan ilk davlat tuzilmalari, shaharsozlik madaniyati va huquqiy an’analar xalqimizning davlatchilik salohiyati qadimiy va mustahkam ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Xorazmiy va Beruniyning ilmiy kashfiyotlari, Ibn Sinoning tafakkur olami, Ulug‘bekning ilmga sadoqati, Navoiyning insonparvarlik g‘oyalari esa milliy taraqqiyotimizning ma’naviy poydevorini asrlar osha boyitib kelgan buyuk merosning yorqin namunasidir.

Davomi 3-betda

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



JADAL VA ANIQ MAQSADLI ISLOHOTLAR

Mamlakatimiz yetakchisining 23-24-sentabr kunlari Andijonga tashrifi viloyat iqtisodiy-ijtimoiy hayotida yangi davrni boshlab berdi.
Prezidentimiz tig‘iz va ishchan ruhda o‘tgan tashrif davomida mahallalarga borib, aholi bilan muloqot qilishga ham vaqt ajratdi. Ana shu muloqotlar davomida oddiy odamlarning orzu, umidlari, kelajak rejalariga qiziqdi va ularning ro‘yobi yo‘lida yirik iqtisodiy-ijtimoiy tashabbuslar ilgari surildi.

Tashrif davomida hududning sanoat va investitsiya salohiyati, energetika, qishloq xo‘jaligi, transport, turizm va boshqa sohalarda yirik loyihalarga start berildi. Boshlangan ishlar izchil davom etishi uchun ham aniq vazifalar ko‘rsatib o‘tildi. Zarur o‘rinlarda yangi imtiyoz va imkoniyatlarga yo‘l ochildi. Andijonda boshlangan islohotlar butun yurtimiz bo‘ylab quloch yozdi.

Bugun ana shunday katta yangilanishlar og‘ushida yashayotgan viloyat ahlining qalbi faxr-iftixorga to‘lgan. Ular bugun katta rejalar tuzib, ertangi kunga mustahkam ishonch bilan yashamoqda. Quyida ana shunday katta marralar olib yashayotgan yurtdoshlarimizdan ayrimlarining fikrlari bilan tanishishingiz mumkin.

MAHALLAGA YANGICHA YONDASHUV O‘Z SAMARASINI BERYAPTI

So‘nggi yillarda Andijon viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish, qurilish sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlar bir paytlar hatto tasavvurimizga ham sig‘masdi. Bu boradagi tizimli ishlar shu darajada tez, shu darajada jadal va go‘zal tarzda amalga oshirilyaptiki, o‘tgan yili viloyatga kelgan mehmon bu yil bunyodkorliklarga hayrat bilan boqyapti. Ishlab chiqarish korxonalari deysizmi, turar joy binolari, mahallalarni obodonlashtirish, eng olis mahallalardagi ko‘chalarni asfaltlashmi — barcha sohada keng ko‘lamli ishlar qilingani shundoqqina ko‘zga tashlanadi.



Hamidjon OMONOV,
“Sodiq xizmatlari uchun” medali sohibi

Bevosita shu jarayonning ichida bo‘lganimiz uchunmi, yangilanishlarga ko‘zimiz o‘rganib qoldi. Shunday bo‘lsa-da, yashab turgan joyingiz har tomonlama obod bo‘layotganini qalban his qilib, dilingiz yayrar ekan. Ayniqsa, mahallalarga munosabatning tubdan o‘zgarishi, hududlarni obod qilish, odamlarning farovon yashashiga sharoitlar yaratilishi eng to‘g‘ri yo‘l bo‘ldi.

Chunonchi, bir vaqtlar faqat ishlab chiqarishni rivojlantirishga harakat bo‘ldi, bir muddat faqat qurilishni kuchaytirishga e’tibor qaratildi. Lekin mahallalarga bugungidek alohida yondashuv bo‘lmadi. Ular o‘z holiga tashlab qo‘yildi. Odamlar tuproq, loy kechib, ariqdan suv tashigan holatlar qalashib yotar edi. Bugun esa ko‘plab mahallalarning ichki ko‘chalari ham asfaltlanib, ravon bo‘lyapti. Yillab toza ichimlik suv bo‘lmagan hududlarga obihayot berilyapti. Bu e’tibor, bu o‘zgarishlar odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirayotir. Berilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, mahallalar, xonadonlar ham muayyan faoliyatga ixtisoslashyapti. Buning ortidan ishsizlik kamayib borayotgani, aholi daromadlari ortayotgani quvonarli.

Bugun Andijon viloyatidagi barcha mahallalarda “yettilik” davlat rahbarining topshiriqlari, ko‘rsatmalari asosida faoliyat yurityapti. Hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari, ijtimoiy xodimlarning o‘z vazifasiga sidqidildan kirishgani turli yo‘nalishlar doirasida odamlarimiz, ayniqsa, yoshlar dunyoqarashini oshirishga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatli. Xususan, kitobxonlik bo‘yicha yangi-yangi loyihalar ko‘paydi. Mahallalarda kutubxonalar ochilyapti.

Kunu tun aholiga xizmat qiladigan ko‘chalar ochilishi esa tadbirkorlarga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratdi. Bunday harakatlar natijasida qancha-qancha ishsizlar ishli bo‘lyapti, oilalar farovonligi ta’minlanyapti.

O‘ylaymanki, bu ishlarning natijasi sezilarli bo‘ladi. Asl mutaxassisligim quruvchi o‘laroq, 2022-yilda “Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan taqdirlandim. Bu, albatta, menga katta mas’uliyat yuklagan. Alohida hurmat va ishonchga javoban ertamiz egalariga munosib meros bo‘lib qoladigan ishlarni qilishdan tolmaslikka intilaman. Zero, tinch va farovon yurtda emin-erkin yashab, o‘z burchingni ado etishdan ortiq baxt bo‘lmasa kerak.

TILLAGA TENG PILLAMIZ BOR



Abdulfattoh MUSULMONQULOV,
Andijon viloyati Marhamat tumanidagi “Ipak ko‘chat klaster” fermer xo‘jaligi rahbari

Prezidentimizning Andijon viloyatiga tashrifi davomida aytilgan fikrlar, bildirilgan taklif va tashabbuslar, ishga tushirilgan yangi loyihayu quvvatlar nafaqat biz andijonliklar, balki butun mamlakatimiz uchun ahamiyatlidir. Chunki bularning bari yurtimizda inson qadri va manfaati yo‘lida kechayotgan izchil islohotlar samarasi, mevasidir.

Davlatimiz rahbari ishtirokidagi yig‘ilishda bevosita qatnashdim. Prezidentimiz nutqidan angladimki, hali Andijonda yanada ulkan ishlar amalga oshiriladi, loyihalar ro‘yobga chiqariladi.

Keyingi yillarda yurtimizda barcha soha va yo‘nalishlar qatori pilla yetishtirish, ipakchilikka ham alohida e’tibor qaratilyapti. Buning natijasida tizimda katta-katta yutuqlarga erishib, ilg‘orlab borayotirmiz. Xususan, xo‘jaligimizda 2017-yildan buyon 16 ta davlatdan keltirilgan 240 turdagi tutning noyob jahon kolleksiyasi yaratildi. 2022-yilda in-vitro usulidagi laboratoriya qurildi. “Marhamat — 2017” hamda “Yangi Andijon” tut navlari yaratildi. Ular ko‘p yillik ilmiy va amaliy ishlar samarasidir. Duragay hisoblangan ushbu navlar mahalliy sharoitga mos, oddiy tut bargidan bir necha barobar katta, serhosil, to‘yimli, yumshoq va oqsilga boy.

Ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal deyishadi. Hozirgi kunda Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabalari xo‘jaligimizda dual ta’lim asosida o‘qib-o‘rganyapti. Yoshlar barcha jarayonlar — seleksiya ishlari, in-vitro laboratoriyasida ko‘chatlarni qanday ko‘paytirish kerakligini o‘z ko‘zlari bilan ko‘radi.

Bundan tashqari, tut navlari hosildorligi o‘rganiladi, tut mevasidan urug‘ni ajratib olish, uni ekish, ko‘chatlarni parvarishlash, ko‘paytirish — qisqasi, pilla yetishtirish uchun kerak bo‘lgan barcha ozuqa bazasi bo‘yicha ilmga ega bo‘ladi. Bu pilla yetishtirishda ilm bilan amaliyot uyg‘unlashadi degani.

Aslida, faoliyat boshlaganimizdan buyon barcha ishlarni ilmiy asosda qilamiz. Dunyoda nechta davlatda ipak qurti yetishtiriladigan bo‘lsa, barchasidan vakillar kelib, biz bilan tajriba almashadi. O‘z navbatida, biz ham borib ish o‘rganamiz, xullas, hamkorlikda faoliyat yuritamiz.

O‘zbekistonda pilla yetishtirish, pillachilikni rivojlantirish, ozuqa bazasi bo‘yicha eng ilg‘or xo‘jalik hisoblanamiz desak, xato bo‘lmaydi. Bunda yillar davomida sohaga doir juda ko‘p qaror, farmonlar imzolangani, imtiyozlar, subsidiyalar ajratib berilgani ham muhim omil bo‘ldi.

Endilikda mamlakatimizda sanoat usulida pilla yetishtirish joriy qilinyapti. Nasib qilsa, keyingi yildan shu usulga o‘tamiz. Sanoatlashgan usulda pilla yetishtirishning qulayliklari ko‘p. Bular, birinchi navbatda, tannarx va sifatda ko‘rinadi. Tannarx arzonlashishi, sifat yuqori bo‘lishi esa chetga ipak matolarini eksport qilishda ayni muddaodir.



Bugungi kunda yoshlarimiz va ularning ota-onalari oldida turgan eng katta savollardan biri “Kelajakda qaysi kasb egalari ishsiz qolmaydi, qaysi soha mutaxassislari barqaror va yuqori daromadga ega bo‘ladi” degan so‘rovdir. Texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan, sun’iy intellekt va robotlar hayotimizga kirib kelayotgan davrda an’anaviy hunarlar o‘rnini mutlaqo yangi yo‘nalishlar egallamoqda. Buning amaliy ifodasi o‘laroq, Andijonda barcha talablarga javob beradigan, yoshlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri yirik sanoat korxonalari bilan bog‘laydigan ulkan ta’lim loyihasi — “Andijon-Huanya” xalqaro texnikumi ish boshladi.

KELAJAK SANOATI ANDIJONDA BARPO ETILMOQDA:

Zamonaviy kasblar va hamkorlik integratsiyasi



Azimjon HUSANOV,
Kasbiy ta’lim agentligi direktori

Joriy yil 23-24-sentabr kunlari Prezidentimiz Andijonga tashrifi doirasida viloyatning transport, sanoat, tadbirkorlik va infratuzilma salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan qator muhim loyihalarni ko‘zdan kechirdi. Tashrif doirasida davlatimiz rahbari ushbu texnikum faoliyati bilan ham yaqindan tanishdi.

Transformatsiya va strategik vazifalar

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti bugungi kunda tub tarkibiy va texnologik transformatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. Sanoat tarmoqlari izchil modernizatsiya qilinishi, ishlab chiqarish jarayonlariga yuqori texnologiyalar, sun’iy intellekt, robototexnika va raqamli tizimlar shiddat bilan kirib kelishi an’anaviy kasbiy malaka hamda ko‘nikmalarga talabni tubdan o‘zgartirdi. Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan uzoq muddatli strategik maqsadlar, xususan, 2030-yilga qadar bir million aholini zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitish hamda inson kapitalini jahon andozalari darajasiga ko‘tarish vazifasi kasbiy ta’lim tizimining mafkurasi va metodologiyasini yangilashni taqozo etmoqda.

Andijondagi ustaxonada boshlangan mashg‘ulot ertaga Germaniyadagi zavod eshigini ochishi mumkin. Ushbu global va milliy chaqiriqlarga javob bera oladigan mutlaqo yangi intellektual va amaliy model sifatida bugun viloyatda o‘ziga xos ta’lim fenomeni shakllanmoqda. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi oliy darajadagi strategik hamkorlikning amaliy mevasi o‘laroq tashkil etilayotgan “Andijon-Huanya” xalqaro texnikumi shunchaki yangi ta’lim muassasasi emas, balki ta’lim, real sektor subyektlari va investitsiyalar sintezini o‘zida mujassam etgan innovatsion klasterdir. Kadrlar tayyorlash tizimidagi ko‘plab an’anaviy muammolarga, xususan, bitiruvchining amaliy ko‘nikmalari va ish beruvchining real ehtiyojlari o‘rtasidagi nomutanosiblikka barham beruvchi konseptual yechimdir.

Loyihaning asosiy parametrlari va arxitekturaviy konsepsiyasi

Xalqaro texnikum Andijon tumani sanoat hududida, bevosita yirik ishlab chiqarish quvvatlari bilan yonma-yon joylashgani uning konseptual poydevorini belgilaydi. Loyihaning umumiy qiymati 15 million AQSH dollari bo‘lib, u to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy hamkor hisobidan yo‘naltirilmoqda. Bu ko‘rsatkich milliy kasbiy ta’lim tizimiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasidagi davlat siyosatining yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. Texnikum to‘la quvvat bilan ishga tushganda, uning moddiy-texnologik bazasi jahonning eng ilg‘or texnik kollejlari andozalariga mos infratuzilma obyektlarini o‘z ichiga oladi.

U jami 900 o‘rinli bo‘lib, o‘quv jarayonining ilk bosqichi hisoblangan 2026/2027-o‘quv yilidan dastlabki 7 ta yo‘nalish bo‘yicha kadrlar tayyorlashni boshladi. Loyihaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga ko‘ra, 2030-yilga qadar yillik o‘quvchilar qabuli hajmini 900 nafarga, umumiy talabalar kontingentini esa 1800 taga yetkazish rejalashtirilgan. Bu ko‘lam mintaqadagi muhandislik-texnik kadrlar taqchilligini tizimli ravishda bartaraf etish imkonini beradi.

Eskirgan ta’limdan integratsiyalashgan ta’limga

O‘tgan davrlarda kasbiy ta’lim tizimida yo‘l qo‘yilgan eng katta xatolardan biri kasb yo‘nalishlarini hududning real iqtisodiy drayverlari va korxonalar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilmasdan, qog‘ozbozlik yoki nominal rejalarga asosan belgilash amaliyoti edi. Natijada mehnat bozoriga keraksiz mutaxassislar kirib kelar, korxonalar esa chet eldan yetuk muhandislarni taklif etishga majbur bo‘lar edi. “Andijon-Huanya” texnikumi bu eski metodologiyani butunlay parchalab tashladi.

Bugun mehnat bozori shiddat bilan o‘zgarmoqda. Innovatsion g‘oyalar va yuqori texnologiyalar hayotimizga kirib kelar ekan, malakali kadrlarga talab har qachongidan ham yuqori. Shu maqsadda Andijon viloyatida ishlab chiqarish va ta’lim integratsiyasini ta’minlash borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Hududdagi yetakchi korxonalar bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan yangi o‘quv yo‘nalishlari bunga yaqqol misoldir. Bugungi kunda Andijon viloyati hokimligi, hududdagi tadbirkorlar, xorijiy investorlar va Kasbiy ta’lim agentligini birlashtirgan maxsus muvofiqlashtirish kengashlari orqali har bir kasb bo‘yicha aniq buyurtmalar portfeli shakllantirildi. Texnikum faoliyati hozirning o‘zida viloyatda faoliyat boshlagan 19 ta yirik xorijiy va qo‘shma ishlab chiqarish korxonasi bilan strategik sheriklik shartnomalari asosida yo‘lga qo‘yilgan.



Tizimli rejalashtirish: 2030-yilgacha prognozlar

Xitoy xalqaro texnik maktabi konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan qabul rejalari ta’lim muassasasining bosqichma-bosqich, barqaror va iqtisodiy jihatdan asoslangan o‘sish modeliga ega ekanini ko‘rsatadi. Ta’lim yo‘nalishlarining har biri o‘quvchilarning bazaviy ma’lumotiga (9 yillik yoki 11 yillik maktab negizida) qarab tabaqalashtirilgan. Qabul ko‘rsatkichlarining 2026-yildan 2030-yilgacha bo‘lgan dinamikasi va ta’lim poydevori tahlili quyidagicha shakllantirilgan:

— 11 yillik umumiy o‘rta ta’lim negizidagi yo‘nalishlar: “Bino va inshootlar qurilishi”, “Sanoat AT texnologiyalariga xizmat ko‘rsatish” hamda “Elektrobuslar, elektromobillar va elektroskuterlar servis va diagnostika texnigi” kabi murakkab muhandislik va algoritmlarga tayanuvchi kasblar. Ushbu guruhda qabul hajmi 2026-yildagi 30 nafardan 2030-yilga borib, har bir yo‘nalish bo‘yicha 120-150 nafargacha oshiriladi.

— 9 yillik tayanch o‘rta ta’lim negizidagi yo‘nalishlar: “Sanoat mexatronikasi va robototexnika servisi”, “Agroservis texnigi” hamda “Logistika” kabi amaliy ko‘nikma va erta kasbiy ixtisoslashuvni ko‘proq talab qiluvchi sohalar. Ushbu yo‘nalishlarda ham qabul ko‘rsatkichlari mos ravishda 2026-yildagi 30 nafardan 2030-yilda 90-150 nafargacha o‘sishi prognoz qilingan.

Amaliy ta’lim pedagogikasi: innovatsion ustaxonalar

Kasbiy ta’lim tizimidagi eng muhim va asosiy jihat undagi amaliy mashg‘ulotlar falsafasi butunlay o‘zgarganidir. Texnikum ustaxonalariga shunchaki “dars o‘tiladigan xona” deb qaramaslik kerak. Bu yerda yangi pedagogik konsepsiya — “Xavfsiz xato qilish va undan xulosa chiqarish maydoni” mukammal darajada amal qiladi.

Voyaga yetmagan, hali ishlab chiqarish ko‘nikmalari to‘liq shakllanmagan o‘smirni darhol yirik sanoat korxonasiga, masalan, elektr avtobuslari yig‘ilayotgan yirik konveyer liniyasiga yoki yuqori voltli robotlashtirilgan tizimlar yoniga olib kirish juda katta iqtisodiy va hayotiy xavflarni keltirib chiqaradi. Bu yerda sanoat va texnika xavfsizligi qoidalari buzilishi xavfi, korxonaning millionlab dollar qiymatga ega qimmatbaho uskuna va robotlarini noto‘g‘ri boshqarish oqibatida ularga zarar yetkazish ehtimoli mavjud. Shu sababli “Andijon-Huanya” xalqaro texnikumi o‘quv ustaxonalari real zavod muhitining to‘liq simulyatsiyasini yaratadi, biroq xavfsiz formatda. Bu yerda korxonalar tomonidan taqdim etilgan real xomashyo, materiallar va o‘quv-diagnostika stendlari o‘rnatilgan bo‘lib, o‘quvchi hech qanday qo‘rquvsiz o‘z malakasini oshira oladi.

“Xalqaro” maqomi va global brendlar integratsiyasi

Texnikum nomidagi “xalqaro” so‘zi faqatgina investitsiyaga daxldor emas. Bu, eng avvalo, ta’lim dasturlari jahon andozalariga mosligi va xorijiy intellektual resurslar jalb qilinishidir. Bugungi kunda xorijiy hamkor tomonidan texnikum bosh-qaruvi va o‘quv jarayoniga mahalliy mutaxassislar bilan birgalikda 20 dan ortiq xorijlik pedagog, professor va xalqaro toifadagi ta’lim ustasi jalb etilmoqda. Bu esa Andijonda Xitoyning kasbiy ta’lim tizimidagi dunyoga mashhur “Lyuban ustaxonasi” (Luban Workshop) standartlarini mukammal darajada qo‘llash imkonini beradi.

“Lyuban ustaxonasi” Xitoy tomonidan xalqaro miqyosda amalga oshiriladigan, kasb-hunar va texnik ta’limni rivojlantirishga qaratilgan global loyihadir.

Aytish joizki, ikki tomonlama memorandum va shartnomalar doirasida amaldagi o‘quv darsliklari dunyoning yetakchi brendlari — “Huawei”, “BYD”, “Siemens”, “Tesla” kabi transmilliy kompaniyalar talablariga to‘liq moslashtirilgan.

“Andijon-Huanya” xalqaro texnikumi o‘z o‘quvchilariga nafaqat bilim beradi, balki kelajakdagi iqtisodiy farovonligi va hayot darajasining aniq prognozini ham taqdim etadi. Ushbu muassasada yo‘nalishlar bo‘yicha tayyorlanadigan kadrlarning kelajakdagi oylik maoshlari tahlili ularning nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro mehnat bozorida (Xitoy, Turkiya, Germaniya) qanchalik yuqori baholanishini ko‘rsatadi. Xorijiy tillarni va ilg‘or texnologiyalarni o‘rgangan bitiruvchilar Germaniya va Xitoy kabi davlatlarning yirik sanoat korxonalariga qonuniy, xavfsiz va yuqori maoshli ish joylariga joylashtiriladi.

Xulosa

Xalqaro texnikum misolida yaratilayotgan yangi ta’lim formati shunchaki navbatdagi loyiha emas. Bu ta’lim sifati, ishlab chiqarish ehtiyojlari, xorijiy investitsiyalar va global mehnat bozori manfaatlarini bir nuqtada birlashtirgan yangi O‘zbekistonning milliy brendidir. Endi yoshlarimizga faqat nominal ma’lumot beruvchi darsliklar bilan cheklanib qolmaslik kerak. Ularga dunyoning eng ilg‘or korxonalarida ishlatilayotgan texnologiyalarni o‘rganish, xato qilish va haqiqiy usta bo‘lib yetishish imkoniyati taqdim etilmoqda.

Kasb shunchaki kundalik mehnat yoki tirikchilik vositasi emas. Kasb — insonning o‘z salohiyatini namoyon qilishi, oilasi va vataniga naf keltirishi hamda kelajakka dadil qadam tashlashi uchun ochilgan eng buyuk imkoniyatlar darvozasidir. Ushbu “Andijon modeli” kelgusida butun respublikamiz miqyosida ommalashtiriladi, har bir hududning drayver sohalariga mos xalqaro klasterlar tashkil etish ishlari yanada qat’iyat bilan davom ettiriladi. Ertaga zavod eshigidan kiradigan yoshning qo‘lida oddiy diplom emas, o‘z mehnati bilan ochilgan yangi hayot kaliti bo‘ladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

3

2026-yil 29-sentabr, 202-son

O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyotimiz bizga o‘z kelajagimizni o‘zimiz belgilashdek bebaho huquq berdi. Endi uning qadrini farzandlarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish, yurtimizda adolatni mustahkamlash va xalqimiz farovonligini oshirish bilan namoyon etmog‘imiz zarur. Shubhasiz, Prezidentimiz ilgari surgan milliy yuksalish g‘oyasi insonparvar davlatni barpo etish yo‘lida barchamizni birlashtirishda muhim tarixiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

MUSTAQIL TARAQQIYOT YO‘LIDA MILLIY YUKSALISH SARI

DADIL ODIMLAYOTGAN YANGI O‘ZBEKISTON

Tanzila NORBOYEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi

Buyuk o‘zbek yo‘li



Boshlanishi 1-betda

Bu tarixiy merosning mantiqiy davomi sifatida jadid bobolarimizning milliy istiqlol, ma’rifatli jamiyat va zamonaviy taraqqiyot haqidagi orzularini ham eslash o‘rinli. Ular xalqning kelajagini ta’lim va ilmda, tafakkur erkinligida, dunyo ilm-fani yutuqlarini o‘zlashtirish va jamiyat hayotiga tatbiq etishda ko‘rdi. Shu jihatdan, bugungi islohotlarning inson qadri, bilim, tashabbus va erkin fikrga tayanishi jadidlar ilgari surgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan hamohang.

O‘ttiz besh yillik mustaqillik davri shu tarixiy meros va milliy salohiyatni zamonaviy taraqqiyot maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish yo‘lidagi ulkan tajriba bo‘ldi. Bu yillar xalqimiz matonati, mehnati va bunyodkorlik qudrati bilan kechdi. Ayni paytda bugungi avlod zimmasida erishilgan yutuqlarni asrash bilan birga ularni yangi natijalar bilan boyitish, mamlakat taraqqiyoti uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish vazifasi turibdi.

Bu vazifalarning amaliy ifodasi keyingi yillarda inson manfaatini davlat siyosati markaziga qo‘yishga qaratilgan islohotlarda yaqqol ko‘rinmoqda. Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berilishi, tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi cheklovlarning qisqartirilishi, mamlakatimizning tashqi dunyoga ochilishi kabi o‘zgarishlar odamlarning o‘z salohiyati va mehnatiga ishonchini kuchaytirdi. Yurtdoshlarimizning mehnat qilishi, tashabbus ko‘rsatishi va qobiliyatini namoyon etishi uchun yaratilayotgan cheksiz imkoniyatlar esa islohotlarning ijtimoiy poydevorini tobora mustahkamlamoqda.

Davlatimiz rahbari bayram tabrigida mamlakatimizda kambag‘allik darajasi keskin qisqarganini alohida ta’kidlagani bejiz emas. Buni shunchaki statistika sifatida qabul qilmasligimiz kerak. Uning ortida oilalar, ota-onalar, farzandlar, ularning orzulari va ertangi kunga umidlari turibdi. Eng muhimi, odamlar “hayotim ertaga qanday bo‘ladi?” deb emas, “yana nimalar qilsam, ko‘proq yutuqqa erishaman?” deb yashayotgani ko‘nglimizni tog‘dek o‘stiradi.

2030-yilga borib, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yetkazish reja qilingan edi, lekin bu maqsadga ancha erta — shu yilning o‘zidayoq yetishimiz kutilayotgani juda quvonarli, albatta. Eng muhimi, mamlakatimiz daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga qadam qo‘yadi. Bu ham shunchaki iqtisodiy ko‘rsatkich emas. Chunki mamlakat iqtisodiyoti o‘sganda uning samarasi odamlar dasturxonida, uyida, farzandining ta’limida, ishida, daromadida ko‘rinadi.

Zamonaviy bilim va ilg‘or texnologiyalarga tayangan kelajak

Mamlakatimiz yetakchisi har bir ma’ruzasida, xalq bilan o‘tkazadigan har bir uchrashuvida insonlar ertaga emas, bugun baxtli yashashi lozimligini, bu Vatanda inson aziz va mukarram ekanini alohida ta’kidlaydi. Mustaqillik bayramidagi nutqida ilgari surilgan inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan yettita milliy dasturning o‘zaro uyg‘unligi ham fikrimiz isbotidir. Bu dasturlar ijrosini to‘la ta’minlashda har bir davlat tashkiloti, jamoatchilik institutlari, bir so‘z bilan aytganda, hammamiz bir tanu bir jon bo‘lib ishlashimiz talab etiladi.

Har bir mamlakatning taraqqiyoti ta’lim sohasidagi islohotlar natijadorligiga bevosita bog‘liq. Shu bois, so‘nggi yillarda yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirishga alohida urg‘u berilib, malakali kadrlar tayyorlash ishlarini sifat darajasiga ko‘tarishga alohida e’tibor qaratilmoqda. **Birinchi milliy dasturda ta’lim va kasbiy tayyorgarlikka ustuvor o‘rin berilgani ham bejiz emas.** Zero, bugun dunyoda raqobat, avvalo, bilim, texnologiya va malaka sohasida kechmoqda. Yosh avlodning ana shunday keskin muhitda munosib o‘rin topishi uchun ta’limning barcha bosqichida sifat va imkoniyatlar tengligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish zarur.

Xususan, olti yoshli bolalarni tayyorlov guruhlariga to‘liq qamrab olish, texnikumlarda bir million yigit-qizni kasbga o‘qitish, kamida o‘nta universitetni dunyoning eng yaxshi mingta oliygohi qatoriga olib kirishdek ezgu maqsadlar shunchaki reja sifatida belgilab qo‘yilayotgani yo‘q. Albatta, bu vazifalar pedagoglarning malakasi, o‘quv dasturlari mazmuni va mehnat bozori ehtiyojlarini hamjihatlikda ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, bugun talabalarning yarmidan ko‘pini xotin-qizlar tashkil etayotganini inobatga olsak, bu jamiyat kelajagi uchun naqadar ahamiyatli ekanini bilmog‘imiz muhim. Zero, bilimli ayol o‘z hayotini ongli ravishda qurish, iqtisodiy mustaqillikka erishish va farzandlariga munosib tarbiya berish uchun ko‘proq imkoniyatga ega bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bugungi davrda yoshlar uchun yangi bilim va imkoniyatlar maydoni kengayib bormoqda. Sun’iy intellekt, raqamli ta’lim platformalari, elektron kutubxonalar, onlayn kurslar va zamonaviy axborot resurslari dunyo ilm-fani yutuqlaridan foydalanish imkoniyatini tobora osonlashtirmoqda. Bunday sharoitda o‘zbek tilining ilm, ta’lim va texnologiyalar yaratiladigan zamonaviy til sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz o‘zbek tilining ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar sohasidagi mavqeini mustahkamlashga e’tibor qaratayotgani ham shu nuqtayi nazardan muhim. Zero, tilning nufuzi uning faqat adabiy va madaniy hayotdagi mavqei bilan emas, balki zamonaviy bilimlarni yaratish, saqlash va tarqatishdagi imkoniyatlari bilan ham belgilanadi.

Hech shubha yo‘qki, bugun o‘qishda, kasbiy ta’limda, raqamli texnologiyalarda, ijodiy izlanishlar, sport hamda jamoat ishlarida dastlabki yutuqlari bilan barchani quvontirayotgan o‘g‘il-qizlarimiz yangi O‘zbekistonning oltin fondi va porloq kelajagidir. Prezidentimiz tabrikda aytib o‘tganidek, yil sayin safi kengayib borayotgan mana shunday zukko, tirishqoq farzandlarimiz timsolida Uchinchi Renessans nihollarini ko‘ramiz. Ularning har birini gurkirab o‘sadigan azim daraxt, ertangi kunimizning mustahkam ustunlari etib tarbiyalash davlat va jamiyatning eng ustuvor vazifasiga aylangan.

Salomatlik nafaqat baxt, balki jamiyat boyligidir

Mustaqillik yillarida erishgan natijalarimizni eslaganda, inson salomatligi va umr davomiyligidagi o‘zgarishlarni e’tirof etmoq o‘rinlidir. Prezidentimiz bu masalani ikkinchi dastur sifatida kiritgani ham bejiz emas. Ta’kidlanganidek, o‘tgan davrda mamlakatimizda 652 ta yangi tibbiyot muassasasi barpo etildi, xususiy tibbiyotni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada tibbiy xizmatlar hajmi uch karra oshdi. Lekin bu raqamlarning o‘zigagina qarab natijani baholab bo‘lmaydi. Chunki tibbiyotdagi eng katta yutuq, birinchi navbatda, inson salomatligi va hayotida ko‘rinadi.

Bir eslaylik: ilgari odamlar ko‘plab murakkab jarrohlik amaliyotlarini faqat xorijga borib qildirish mumkin deb o‘ylardi. Bugun bu kasalliklar yurtimizning o‘zida davolanayotgani qanday baxt! 100 dan ziyod murakkab diagnostika va davolash usullari mukammal bajarilmoqda. Bu, avvalo, bemor uchun beqiyos qulaylik. Kasal bo‘lgan inson oilasidan uzoqqa ketmaydi, katta xarajatlar qilmaydi, o‘z yurtida malakali tibbiy yordam olish imkoniga ega bo‘ladi.

Kelgusi yillarda xalqimizning sog‘lom va uzoq umr ko‘rishi uchun yanada ko‘p imkoniyatlar yaratish, tibbiy xizmat sifatini oshirish, kasalliklarni erta aniqlash va oldini olishga e’tiborni kuchaytirish muhim vazifalardan bo‘ladi. Aslida, insonning sog‘lom yashagan har bir yili uning oilasi uchun quvonch, farzandlari uchun baxt, jamiyat uchun katta boylik. Shuning uchun **“milliy yuksalish” deganda iqtisodiy o‘sish bilan birga odamlarning sog‘lom, xotirjam va munosib hayot kechirishi ham ko‘zda tutilayotgani juda muhim.** Ikkinchi milliy dasturdagi maqsadlar ham shu jihatlarni nazarda tutadi: **kelgusi o‘n yillikda nafaqat mamlakatimiz iqtisodiyoti, balki insonning o‘zi, hayot sifati va kelajakka ishonchi yanada yuksalishi kerak.**

Shu maqsadda aholi salomatligiga doir davlat xarajatlarini kelgusi besh yilda yalpi ichki mahsulotning 5 foiziga yetkazish, davlat tibbiy sug‘urtasini keng tatbiq etish ko‘zda tutilgan. Ayni paytda mazkur mablag‘larning maqsadli sarflanishi, tibbiyot xodimlarining malakasi va bemorlarga munosabati kabi dolzarb masalalar ham borki, ularni nazorat qilishda zimmamizdagi mas’uliyat yanada ortgan.

Iqtisodiy qudrat va tabiat oldidagi mas’uliyat

Uchinchi milliy dastur iqtisodiyotda texnologiya va mehnat unumdorligiga tayangan o‘sishni ta’minlashni ko‘zda tutadi. Savol tug‘iladi: bu nimalarga xizmat qiladi? Avvalo, bu yondashuv raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va aholi daromadini ko‘paytirish uchun zarur. Korxona zamonaviy texnologiyalar bilan ishlab, xodim yuqori malakaga ega bo‘lganda mehnatning iqtisodiy samarasi ortadi.

Shu ma’noda, iqtisodiyotga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish bilan birga innovatsion faoliyat uchun qulay huquqiy muhit yaratish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, startap va venchur bozorini kengaytirish hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali va mas’uliyatli foydalanishni ta’minlaydigan qonunchilik asoslarini izchil takomillashtirish zarur.

Mazkur sohalardagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish, innovatsion biznes uchun qulay muhitni kengaytirish, xususiy investitsiyalarni jalb etish va yangi texnologik yechimlarni bozorga olib chiqish mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi hayotiy takliflarni qo‘llab-quvvatlashimiz lozim deb bilaman. Shuningdek, ilm-fan, ishlab chiqarish va biznes o‘rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tezkor tatbiq etish, korxonalarning innovatsion faolligini oshirish ham muhim. Bu borada startaplarni qo‘llab-quvvatlash, AT xizmatlari eksportini kengaytirish, intellektual mehnatga asoslangan yangi kasblar va yuqori daromadli ish o‘rinlarini ko‘paytirish, yoshlarni zamonaviy texnologik ko‘nikmalarga o‘qitish hamda ularning innovatsion g‘oya va tashabbuslarini amalga tatbiq etishida ko‘makchi bo‘lsak, milliy dasturning xalqimiz hayotidagi amaliy ifodasiga hissa qo‘shgan bo‘lamiz. O‘z navbatida, startap va venchur ekotizimi, sun’iy intellekt, innovatsiyalarni tijoratlashtirish va raqamli hamda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qonunchilikni ilg‘or xalqaro tajriba va milliy manfaatlar asosida takomillashtirib borish ham muhim deb o‘ylayman.

Yana misollarga nazar tashlaymiz. Kelgusi o‘n yilda 450 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish, yalpi ichki mahsulotni 2030-yilgacha 300 milliard dollarga yetkazish va sanoatda ikki millionta yuqori daromadli ish o‘rni ochish maqsadlari keng imkoniyatlarni nazarda tutadi. Bu natijaga erishishda sarmoyaning hududlar rivojiga ta’siri, mahalliy kadrlar bandligi va ishlab chiqarishdagi hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Har bir loyiha joylarda qanday iqtisodiy imkoniyat yaratishi bilan ham baholanishi lozim.

Eng muhimi, bu jarayonlar markazida inson turibdi. Chunki taraqqiyotimizning eng ishonchli mezoni qancha loyihalar ishga tushgani, qancha mahsulot ishlab chiqarilgani yoki qancha eksport qilinganida emas, insonning o‘z yurtida mehnat qilib, oilasini boqishi, farzandi uchun yaxshi ta’limni ko‘zlashi, keksayganda munosib hayot kechirishi, ertangi kunini rejalashtira olishi kabilardir.

Bugun mehnat bozorida yangi talablar shakllanmoqda. Kecha bir kasb bilan bajarilgan ishlarni bugun zamonaviy texnologiyani tushunadigan, bir necha yo‘nalishda bilimga ega mutaxassislar bajarmoqda. Yangi uskunalar yangi ko‘nikmalarni talab qilyapti. Jahon bozori esa sifat, malaka va yangicha fikrlaydigan kadrlarga ehtiyojni kuchaytirmoqda. Shu bois, iqtisodiyotdagi bugungi o‘zgarishlarni yangi korxonalar va ishlab chiqarish quvvatlari orqali ko‘rish bilan birga mehnatga, bilimga va inson salohiyatiga munosabatdagi yangilanish orqali ham anglash mumkin.

Taraqqiyotni tabiatdan ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi

Prezidentimiz belgilab bergan yangi taraqqiyot bosqichi uchun muhim ustuvor vazifalar qatorida **suv va tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash, “Yashil makon” umummilliy harakatini yangi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari alohida ahamiyatga ega ekanini ta’kidlash lozim.** Ular zamirida juda muhim g‘oya mujassam: taraqqiyotni tabiatdan ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Davlatimiz rahbari nutqida kelgusi besh yilda ekin maydonlarida suv tejaydigan texnologiyalar qamrovini 100 foizga yetkazish vazifasi qo‘yildi. Bu raqam ortida ulkan strategik maqsad mujassam. Suv — qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, aholi farovonligi va iqtisodiy barqarorlikning asosiy resurslaridan. Shuning uchun suvdan samarali foydalanish faqat bugunning emas, balki kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat masalasi hamdir. Suvni tejash qishloq xo‘jaligi mahsuldorligi, oziq-ovqat ta’minoti va qishloq aholisi daromadi uchun amaliy ahamiyatga ega. Fermer va dehqonning texnologiyani o‘zlashtirishi, unga xizmat ko‘rsatishi va sarflangan mablag‘ samarasini ko‘rishi uchun sharoit zarur. Bu jarayonda har bir hududning suv ta’minoti, tuproq va iqlim xususiyatlarini hisobga olish dasturning hayotiyligini ta’minlaydi.

Yashil hududlarni muhofaza qilish ham kundalik hayot sifati bilan bog‘liq. Maktab va shifoxonalar atrofidagi daraxtzorlar, mahalladagi yashil maydonchalar, aholi dam oladigan soya-salqin joylar umumiy boyligimizdir. Ularni asrashda qonun talabi, mahalliy organlar mas’uliyati va fuqarolar ishtiroki bir-birini to‘ldirishi kerak. Ekologik qarorlarning ochiq muhokamasi jamoatchilik ishonchini kuchaytiradi va tabiatga zarar yetkazadigan holatlarning oldini olishga yordam beradi. Bir so‘z bilan aytganda, davlatimiz rahbari ilgari surgan ekologik ustuvorliklarni mamlakatimizda inson uchun munosib, sog‘lom va xavfsiz muhit yaratishga qaratilgan strategik siyosatning mantiqiy davomi deb bilaman.

Adolat va mahalla manfaatlariga tayangan boshqaruv

2017-yildan boshlab sud-huquq tizimi va inson huquqlarini himoya qilishda ham tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ya’ni sud mustaqilligini ta’minlash va adolat mezonlarini tiklash ishlari boshlandi. **Beshinchi milliy dastur**ga e’tibor qaratar ekanmiz, bu fikrlar naqadar to‘g‘ri ekaniga amin bo‘lamiz. **Unda sud mustaqilligi va qonun ustuvorligiga alohida urg‘u berilgani barcha islohotlarning ishonchli kafolatini mustahkamlashga qaratilgan.**

Prezidentimiz fuqarolar va tadbirkorlarning huquqiy kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar davom ettirilishini alohida ta’kidladi. Ha, inson o‘z haq-huquqini talab qilishdan cho‘chimasligi, tadbirkor esa qonuniy faoliyatiga asossiz aralashuv bo‘lmasligiga ishonch bilan ish yuritishi muhim. Bunday huquqiy muhit jamiyatda adolat va ishonchni mustahkamlash bilan birga iqtisodiy faollik va tashabbus uchun ham barqaror sharoit yaratadi.

Ayollar va bolalar huquqlarini kamsitishga qarshi choralarni kuchaytirish yurtimizda inson qadri tobora yuksalib borayotgani ifodasidir. Zo‘ravonlikka duch kelgan shaxs yordam olishi, xavfsizligi ta’minlanishi va huquqlari tiklanishi uchun mas’ul idoralar o‘rtasida uzviy hamkorlik bo‘lishi shart. Qonunlarda belgilangan kafolatlarning amalda qanday ishlayotganini o‘rganish parlament e’tiboridagi muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Oltinchi milliy dastur mahallaning davlat qarorlarini shakllantirishdagi ishtirokini mazmunan kuchaytiradi. Tuman byudjeti, investitsiya va infratuzilma loyihalarini mahalla ehtiyojlariga tayanib ishlab chiqish rejasi xalq ovozining qarorlarda aks etishini ta’minlashga qaratilgan. Shu o‘rinda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan, mahallaning ichki resurslarini aniqlash, aholi muammolarini joyida va tezkor hal etishga xizmat qiladigan noyob tizim — “mahalla yettiligi”ning faolligi juda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlash joiz.

Mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirish tashabbusi mahalliy byudjet va loyihalarni yuqoridan emas, aynan oddiy odamlar, ko‘makka muhtoj oilalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib taqsimlash imkonini beradi. Bu ijtimoiy tenglik, shuningdek, davlatning xalqimiz oldidagi mas’uliyatini yanada oshirish g‘oyalari ro‘yobining asl ifodasi bo‘ladi desak, adashmaymiz. Qolaversa, mazkur yondashuv har bir mahalla muammosini aniq o‘rganish, ustuvor vazifalarni aholi bilan kelishish va ularga mos resurs ajratishni talab qiladi. Misol uchun, bir hududda ichimlik suv ta’minoti, boshqasida maktabdagi o‘quv o‘rinlari yoki transport qatnovi ustuvor bo‘lishi mumkin. Mahalliy dasturlar ana shu farqlarni inobatga olgandagina mablag‘ eng zarur ehtiyojlarga xizmat qiladi. Shu bilan birga, **murojaatlarni ko‘rib chiqishda bir murojaatchi muammosini hal etish orqali butun hududga xos bo‘lgan tizimli sabablarni ham aniqlash**ga intilishimiz kerak.

Bu jarayon xalq deputatlari hududiy kengashlarining mas’uliyatini yanada oshiradi. Aholini o‘ylantirayotgan masalalarni o‘rganish, mahalliy byudjet va hududiy dasturlarni muhokama qilish, qabul qilingan qarorlar ijrosini nazorat etish mazmunan bir-biri bilan bog‘liq bo‘lishi darkor. Senatning mahalliy vakillik organlariga ko‘maklashish vazifasi deputatlarning tahliliy salohiyatini, qonunchilikdan foydalanish va jamoatchilik bilan ishlash imkoniyatini kuchaytirishda o‘z ifodasini topadi.

Mahalladan boshlangan o‘zgarishlarning natijasi fuqaroga birdek tushunarli bo‘lishi muhim. Odamlar o‘z taklifi qay tarzda ko‘rib chiqilgani, qaysi masala qachon hal etilishi va ajratilgan mablag‘ qanday sarflanganini bilishi kerak. Ana shunday ochiqlik aholi bilan davlat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi, fuqaroni o‘z hududining rivojida faol ishtirok etishga undaydi.

Tinchlik va hamkorlikning hayotiy ahamiyati

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bugungi murakkab dunyoda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik xalqimizning bebaho boyligidir. Bunday muhit o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. U inson qadrini ulug‘lash, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, turli qarash va e’tiqod vakillari o‘rtasida ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, Vatan taqdiri uchun mas’uliyat hissini kuchaytirish orqali mustahkamlanadi.

Davlatimiz rahbari yuritayotgan ochiq va tinchlikparvar tashqi siyosat mamlakatimizning ichki taraqqiyoti uchun ham qulay sharoit yaratmoqda. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va do‘stlik aloqalarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilgani mintaqa davlatlari o‘rtasidagi muloqot va amaliy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirdi.

Chegaralar yaqinida yashaydigan aholi uchun bu jarayon oddiy insonlar o‘rtasidagi bordi-keldining kengayishi, tadbirkorlar uchun yangi bozorlarga chiqish, yoshlar uchun ta’lim va madaniy almashinuv imkoniyatlarining ortishi orqali namoyon bo‘ladi. Demak, yaxshi qo‘shnichilik siyosati faqat diplomatik munosabatlar emas, balki odamlarning kundalik hayotiga ta’sir qiladigan amaliy jarayondir.

Bu siyosatni qo‘llab-quvvatlashda parlament diplomatiyasining alohida o‘rni bor. Xorijiy parlamentlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qilish mamlakatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, qonunchilik sohasida tajriba almashish, o‘zaro manfaatli kelishuvlarning huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Parlament diplomatiyasining ahamiyatini faqat siyosiy muloqot bilan cheklab bo‘lmaydi. Xotin-qizlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim va ilm-fan, ekologik barqarorlik, madaniy-gumanitar aloqalar kabi masalalarda tajriba almashish ham xalqlar o‘rtasidagi yaqinlikni mustahkamlaydi.

Shu nuqtayi nazardan **yettinchi milliy dastur**ning mazmunini faqat tashqi siyosat bilan bog‘lash to‘g‘ri bo‘lmaydi. **Uning zamirida ichki tinchlik va totuvlikni asrash, ochiq va ishonchli munosabatlarni rivojlantirish, qo‘shnilar bilan do‘stlikni mustahkamlash va mamlakatning xalqaro imkoniyatlarini xalq farovonligiga yo‘naltirish kabi o‘zaro bog‘liq vazifalar mujassam.** Tinchlikparvarlik va bag‘rikenglik faqat ma’naviy qadriyat emas, balki taraqqiyotning muhim sharti hamdir. Turli millat va e’tiqod vakillarini yagona Vatan atrofida birlashtirgan hamjihatlik, qo‘shni davlatlar bilan ishonchga asoslangan munosabatlar va dunyo mamlakatlari bilan ochiq muloqot bir-birini to‘ldirib, O‘zbekistonning barqaror va farovon kelajagi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Milliy maqsadlar va parlament mas’uliyati

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, o‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: **xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, har qanday cho‘qqini zabt etish mumkin.** Kimki zamondan ilgari fikrlay olsa, kelajakni yaratadi, kimki kechagi qoliplar bilan yashasa, o‘tmishda qolib ketaveradi. Prezidentimiz Yangi O‘zbekiston g‘oyasi orqali taraqqiyotning eng muhim qonuniyatini amalda namoyon etdi: buyuk o‘zgarishlar, avvalo, tafakkurdan boshlanadi. Bugun mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlar ana shu yangicha tafakkurning amaliy ifodasidir. Davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik, hisobdorlik, qonun ustuvorligi, inson qadri va hech kimni muammolari bilan yolg‘iz qoldirmaslik tamoyillari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Bugun milliy parlamentarizm tarixiga faqat qonunlar soni yoki parlamentning tashkiliy tuzilishi nuqtayi nazaridan qarab bo‘lmaydi. Uning haqiqiy mazmuni xalq irodasining davlat qarorlariga aylanish mexanizmi qanday o‘zgarganida namoyon bo‘ladi. Nutqda belgilangan ustuvor vazifalar qonun ijodkorligi va parlament nazoratining natijadorligiga qo‘yiladigan talablarni ham oshiradi. Biz muhokama qilayotgan har bir qonunning inson hayotiga, tadbirkorlik muhitiga va hududlar rivojiga ta’sirini chuqur baholashimiz zarur.

Senatda qonunlarni ko‘rib chiqishda hududlarning o‘ziga xos sharoiti va aholi ehtiyojlarini hisobga olish muhim ekanini bot-bot takrorlaymiz. Joylardagi o‘rganishlar, fuqarolarning murojaatlari va mahalliy Kengashlar takliflari qonunchilikni takomillashtirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu bog‘liqlik muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va unga tizimli yechim topish imkonini yaratadi. Zero muammolardan xoli hudud, tashvishsiz oila, yechimini kutmayotgan masalalar yo‘q, deya olmaymiz. Mazkur jarayonlar o‘rganish, ilgari surilayotgan tashabbuslar yordamida izga tushmoqda. Muhimi, natija, ishimizdagi samaradorlik va odamlar ko‘zidagi minnatdorlik va ishonch.

Parlament nazoratida ham e’tiborni amaliy natijaga qaratishimiz talab etiladi. Misol uchun oladigan bo‘lsak, ta’limdagi o‘zgarish bolaning bilimiga, tibbiyotga yo‘naltirilgan resurs tibbiy xizmat sifatiga, bandlik choralari oilaning barqaror daromadiga qanday ta’sir qilgani kun tartibimizdagi asosiy savol bo‘lmog‘i kerak. Muammo aniqlanganda uning sababini ochish, mas’ullardan yechim talab qilish va kuzatib borish nazorat ta’sirchanligini oshiradi.

Ayniqsa, umumiy ko‘rsatkichlar ortida ayrim hududlar yoki aholi guruhlarining muammolari e’tibordan chetda qolmasligi zarur. Chekka qishloqda yashayotgan oila, ish izlayotgan yosh, nogironligi bo‘lgan fuqaro yoki o‘z biznesini boshlamoqchi bo‘lgan aylo yaratilgan imkoniyatdan qay darajada foydalanayotgani biz uchun muhim mezondir. Islohotlarning barchaga yetib borishi jamiyatdagi adolat va birdamlikni mustahkamlaydi.

Bir so‘z bilan aytganda, milliy yuksalish davri davlat idoralari bilan birga butun jamiyat faolligini talab qiladi. Olimning izlanishi, o‘qituvchining sabog‘i, tadbirkorning tashabbusi va har bir insonning vijdonan mehnat qilishi umumiy taraqqiyotga hissa bo‘lib qo‘shiladi. Bu o‘rinda xalq vakillarining vazifasi esa intilishlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ro‘yobga chiqishi uchun zarur huquqiy sharoit yaratishdir.

O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyotimiz bizga o‘z kelajagimizni o‘zimiz belgilashdek bebaho huquq berdi. Endi uning qadrini farzandlarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish, yurtimizda adolatni mustahkamlash va xalqimiz farovonligini oshirish bilan namoyon etmog‘imiz zarur. Shubhasiz, Prezidentimiz ilgari surgan milliy yuksalish g‘oyasi insonparvar davlatni barpo etish yo‘lida barchamizni birlashtirishda muhim tarixiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Dala chetlari, ariq va zovur yoqalari, bog‘ hamda tokzorlar qator oralarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish amaliyoti ham kengayib, yerning har bir qarichini iqtisodiy muomalaga kiritish uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

v.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Bugunning gapi

BOZORLAR TO‘KINLIGI – farovonlik va oziq-ovqat xavfsizligi garovi

Yer — xalq rizqi, yurt farovonligi va taraqqiyotining mustahkam tayanchi. Har bir qarichida baraka va imkoniyat mujassam bo‘lgan bebaho boylikdir. Shu bois, mamlakatimizda undan oqilona va samarali foydalanish, mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solish, fermer xo‘jaliklarining daromad manbalarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.



Aktam HAITOV,
O‘zbekiston fermerlari kengashi raisi

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Xususan, dala chetlari, ariq va zovur yoqalari, bog‘ hamda tokzorlar qator oralarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish amaliyoti ham kengayib, yerning har bir qarichini iqtisodiy muomalaga kiritish uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, sohaning huquqiy asoslari izchil takomillashib borayotgani yer resurslaridan oqilona foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Binobarin, 2024-yil 17-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunga binoan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkasini bir yilgacha, dala chetlaridagi, kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun o‘n yilgacha ikkilamchi ijaraga berish imkoniyati yaratildi. Bu o‘zgarish yerga munosabatni yangilashda muhim qadam bo‘ldi. Chunki ilgari to‘liq foydalanilmagan yoki e’tibordan chetda qolgan maydonlarni ishga solish orqali qo‘shimcha mahsulot yetishtirish, daromad olish va aholi bandligini ta’minlash imkoniyati kengaydi.

Joriy yil 13-apreldagi “Dala chetlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun esa yerdan samarali foydalanish borasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur hujjat, avvalo, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari, xususan, dala chetlaridagi imkoniyatlarni to‘liq ishga solish, ularni qo‘shimcha mahsulot va daromad manbaiga aylantirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi.

Agrar sohadagi o‘zgarishlar natijasida ilgari foydalanilmay turgan dala chetlari, kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlar bugun qishloq xo‘jaligining muhim zaxirasiga aylanmoqda. Oddiy misol: bugun 90 mingdan ortiq fermer xo‘jaligi dala chetlari, ariq va zovurlar yoqasida mahsulot yetishtirib daromad topmoqda. Respublika bo‘yicha qariyb 100 ming gektar dala cheti to‘liq foydalanishga o‘tkazilib, ulardan samarali foydalanilgani hisobiga har yili 330 ming tonnadan ortiq qo‘shimcha mahsulot olish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Dala chetlaridan samarali foydalanishni rag‘batlantirishda davlat tomonidan yaratilgan huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, ayrim hududlarda dala chetlarida mahsulot yetishtiruvchilar uchun ichki fitosanitar sertifikatini bir yil davomida bepul berish amaliyoti joriy etilgani, in-vitro usulida yetishtirilgan payvandtagli meva ko‘chatlari xarajatining 50 foizigacha, har bir ko‘chat uchun 25 ming so‘mdan oshmagan miqdorda subsidiya ajratilishi fermer va dehqonlarning manfaatdorligini oshirib, foydalanilmay turgan maydonlarni iqtisodiy aylanmaga kiritishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2025-yil 12 sentabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda mahsulot yetishtirishning uzluksizligini ta’minlash va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni esa bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligi yerlarini hisobga olish, ularni qisqa muddatda iqtisodiy oborotga kiritish va yerdan uzluksiz foydalanishni ta’minlash mexanizmlarini belgilab berdi. U bilan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer ajratilgan ijarachilarga ijaraga berilgan yer uchastkalarining bir qismiga nisbatan ijara shartnomasi bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o‘tkazish (qayta ijaraga berish) huquqi berildi. Bu esa dala chetlariga ham bevosita ta’sir qilib, yerning har bir konturi hisobda bo‘lishi va undan samarali foydalanish lozimligini yana bir bor ko‘rsatdi.

Bugun hududlardagi meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarda yangi bog‘lar qator oralaridan samarali foydalanishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Ayni paytda yurtimizda 28 mingdan ortiq fermer bog‘dorchilik va uzumchilik bilan shug‘ullanyapti. Yangi bog‘larda qator oralaridan oqilona foydalanib, boqqa zarar yetkazmaydigan maqbul ekinlar yetishtirilmoqda.

Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida innovasion yechimlarni joriy etish bugun samaradorlikni oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Shunday istiqbolli yo‘nalishlardan biri dunyo amaliyotida tobora keng qo‘llanayotgan agrovoltaika usulidir. Ushbu texnologiya bir maydonning o‘zida ham qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish, ham quyosh panelidan elektr energiyasi olish imkonini beradi. Xususan, pomidor yetishtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalarda quyosh panellari o‘simliklar ustiga o‘rnatilgan. Panellar hosilni kuchli quyosh nuridan qisman himoya qilib, tuproqdagi namlikning tez bug‘lanishini kamaytirgan. Natijada o‘simlik uchun qulay muhit yaratilib, suvdan samarali foydalanish imkoni oshgan.

Bugun agrovoltaika texnologiyasining dala chetlari va bog‘ qator oralarida qo‘llanayotgani ham qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali foydalanish borasida yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Xususan, Farg‘ona viloyatining Quva tumanidagi “Quva agrostar” korxonasi hamda “Crown Ceramic” qo‘shma korxonasida mazkur innovatsion texnologiya joriy etilgani bu yo‘nalishdagi amaliy qadamlardandir. E’tiborlisi, ushbu agromajmualarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, suv tejovchi texnologiyalar va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi o‘zaro uyg‘unlashgan. Natijada bir maydonning o‘zida mahsulot yetishtirish, elektr energiyasi ishlab chiqarish va suv resurslaridan tejamkor foydalanish imkoni yaratilmoqda.

Ushbu texnologiyaning yana bir muhim jihati shundaki, uni chorvachilik bilan uyg‘unlashtirish orqali resurslardan yanada samarali foydalanish mumkin. Xususan, quyosh paneli soyasida saqlash qoramollarni jazirama issiqdan asrash bilan birga hududdagi tabiiy o‘t-o‘lanlardan ozuqa sifatida foydalanish imkonini ham beradi. Chorvadan olinadigan organik o‘g‘it esa tuproq unumdorligini oshirib, ekinlar uchun tabiiy ozuqa manbai vazifasini o‘taydi. Shu tariqa energiya ishlab chiqarish, suvdan tejamkor foydalanish, chorva uchun ozuqa yetishtirish va organik o‘g‘itdan foydalanish o‘zaro bog‘langan yaxlit tizimga aylanadi. Eng muhimi, bunday yondashuv bir maydonning o‘zida bir nechta yo‘nalishda iqtisodiy samara olish, resurslar sarfini kamaytirish va ekologik barqaror ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Prezidentimizning 2025-yil 31 oktabrdagi “Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qishloq xo‘jaligida imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish, xususan, fermer xo‘jaliklarida chorvachilikni rivojlantirish uchun yangi huquqiy imkoniyatlar yaratdi. Unga muvofiq, belgilangan talablar asosida 20 sotixgacha maydonda yengil konstruksiyali chorvachilik obyektlarini barpo etish va kamida 60 bosh yirik shoxli mol boqish imkoni mavjud. Bu fermerlarning chorvachilikni yo‘lga qo‘yish va qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantirishga qiziqishini yanada oshirdi.

Iqtisodiy mexanizm ishga solinib, urug‘, ko‘chat, o‘g‘it, suv ta’minoti uchun 100 milliard so‘m, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash uchun quritish hamda sovitish uskunalariga 50 milliard so‘m yo‘naltirish belgilangani agrar tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 30-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori esa qishloq xo‘jaligida yashirin imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, har bir qarich yerni mahsulot va daromad manbaiga aylantirish borasidagi ishlarni butunlay yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qarorda dala chetlari bilan bir qatorda kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda mahsulot yetishtirishning yangi tartiblari belgilandi. Jumladan, maydonlarni aniq xatlovdan o‘tkazish, ularning o‘lchamini belgilash, ma’lumotlar bazasini shakllantirish, kadastr ma’lumotlarini raqamlashtirish, dronlar orqali inventarizatsiya qilish, ekin turlarini hududning tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirish, fermerlar va dehqonlarga agrotexnologik ko‘mak berish kabi mexanizmlar ushbu hujjatdan o‘rin oldi.

Buning ahamiyatli jihati shundaki, avval “foydalanilmayotgan maydon” degan tushuncha umumiy xarakter kasb etgan bo‘lsa, endi ularni aniq hisobga olish, raqamlashtirish va iqtisodiy oborotga kiritish mexanizmi paydo bo‘ldi. Mazkur hujjatga asosan hukumatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan foydalangan fermer va dehqon xo‘jaliklari hududning tuproq-iqlim sharoiti, suv ta’minoti va bozor talabidan kelib chiqqan holda maqbul ekinlarni ekish orqali qo‘shimcha mahsulot yetishtirib, yaxshi daromad topmoqda.

Masalan, To‘raqo‘rg‘on tumanidagi “Komilov Tursunboy” fermer xo‘jaligi bugun 183 gektarda paxta, 120 gektarda g‘alla yetishtirmoqda. Xo‘jalik faoliyatida zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilgani suv resurslaridan tejamkor foydalanish, ekinlarni o‘z vaqtida va me’yorda sug‘orish, pirovardida hosildorlik hamda ish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. G‘alladan bo‘shagan 120 gektar maydonga takroriy ekinlar, 2,5 gektar dala chetiga qovoq ekilib, hozir hosil yig‘ishtirib olinmoqda. Dala chetlariga esa 3000 tup yangi navdagi olma va 1200 tup olcha ko‘chati ekilib, parvarishlanmoqda.

Sharof Rashidov tumanidagi “Qo‘rg‘ontepa” fermer xo‘jaligiga qarashli dala chetida esa 5 sotixli issiqxona qurilib, har xil turdagi 1000 tup manzarali ko‘chat ekilgan. 200 ta parranda boqilib, yiliga 40-50 million so‘m, 250 bosh qo‘y va echkilar boqish orqali yiliga 320 million so‘m daromad olinmoqda.

Bugun qishloq xo‘jaligini xalqaro majburiyatlar va ekologik talablar bilan uyg‘un rivojlantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan iqlimga mos qishloq xo‘jaligiga o‘tish konsepsiyasi loyihasining ishlab chiqilgani sohada barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan katta qadam bo‘ldi.

Binobarin, u O‘zbekiston Respublikasida iqlim o‘zgarishining qishloq xo‘jaligiga ta’sirini yumshatishdagi strategik maqsad, vazifa, tamoyillar va ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash, iqlim o‘zgarishining qishloq xo‘jaligiga salbiy ta’sirini kamaytirish, tarmoqning iqlim o‘zgarishiga moslashuvchanligini oshirish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va tiklash, ekologik xavfsiz mahsulot yetishtirish hamda agrar ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Albatta, dala chetlari oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun muhim qo‘shimcha manba. Aholi soni oshib borayotgan bugungi sharoitda qishloq xo‘jaligi yerlarini doimiy kengaytirishning imkoni cheklangan. Shuning uchun asosiy e’tibor yangi yerlarni o‘zlashtirishga emas, balki mavjud maydonlarning har bir qarichidan unumli foydalanib, ko‘proq mahsulot yetishtirishga qaratilishi lozim.

Kelgusi bosqichda esa asosiy maqsad dala chetlarini shunchaki ekin ekiladigan joy emas, balki yuqori daromadli, suv tejovchi, eksportbop va qayta ishlash bilan bog‘langan kichik agrobiznes maydonlariga aylantirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv yer resurslaridan samarali foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va qishloq aholisi daromadini oshirishga xizmat qiladi.

Yerdan, jumladan, dala cheti va bog‘ qator oralaridan unumli foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ushbu sa’y-harakatlar zamirida xalqimizning kundalik zaruriy oziq-ovqat mahsulotlariga talabini to‘liq qondirish, yurtimizda yilning to‘rt faslida ham narx-navo mo‘tadilligini ta’minlashdek ezgu maqsad mujassam. Zotan, har bir qarich yer obod bo‘lsa, undan daromad olinsa, fermerning ham, qishloqning ham iqtisodiy salohiyati yuksalaveradi.

Oramizdagi odamlar

TUGANMAS XAZINA TOPIB OLGAN TADBIRKOR

Yoxud danak chaqib boyib ketish mumkinmi?



Bugun Namangandan gap ketsa, iqtisodiyoti shiddat bilan o‘sayotgan, eksportda yetakchi viloyatga aylanayotgan hudud ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Viloyat ahli gulchilik barobarida qulupnay yetishtirishning ham hadisini olayotir. Ayni paytda bu borada uchqo‘rg‘onliklar shijoati butun hududga, xususan, to‘raqo‘rg‘onliklarga ham ko‘chgan.



Keyingi yillarda To‘raqo‘rg‘onda el og‘ziga tushayotgan eksportchilar ko‘payib boryapti. Ular orasida Toshkent mahallasidagi “Shakarbodom” oilaviy korxonasi ham bor. Oilaviy faoliyat bilan ham daromadini sezilarli oshirib borayotgan ushbu korxona eksport borasida tumandagi “Runamteks”, “Oqtosh tekstil”, “Dilrabo SDA”, “Iftixor kiyim sanoat”, kabi yirik ishlab chiqaruvchilardan qolishmayapti. Yiliga 1000 tonna meva danagi, mag‘zini qayta ishlash, saralash hamda qadoqlash bilan shug‘ullanadigan korxona 10 dan ziyod kishini doimiy, 50-100 odamni mavsumiy ish bilan ta’minlab kelyapti. O‘tgan yili Turkiya va Yevropa davlatlariga eksport qilingan 850 ming dollarlik mahsulot qiymatini bu yil 1 million dollarga yetkazish reja qilingan.

2002-yildan tadbirkorlikka kirishgan oila boshlig‘i Avazxon A’zamov 2018-yilda oilaviy korxona ochib, rasman ish boshladi.

— O‘sha paytlarda tadbirkor bo‘lish juda qiyin edi. Mahsulotimizni boshqa firmalarning nomidan chiqarardik. Bugungidek sharoitni tasavvur ham qilolmasdik, — deydi tadbirkor. — Shuning uchun ham hozir bizga berilayotgan imkoniyatlar uchun juda minnatdormiz. Axir bankka borsangiz, pulingizni bemalol olasiz, konvertatsiya qilasiz, istalgan firma bilan shartnoma tuzasiz. Qayga bormang, yo‘lingiz ochiq. Tadbirkor uchun hali bunday imkoniyat bo‘lmagan. Oltin davr keldi. Ishlagan, izlangan nonini topyapti.

“Shakarbodom” korxonasi danaklarga ikkinchi hayot bag‘ishlaydi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: o‘rik, bodom danagining mag‘zi-ku yeyiladi. Olxo‘ri, olcha danaklarining mag‘zi qanday maqsadda ishlatiladi? Ayniqsa, olcha danagi juda kichik bo‘lsa, boz ustiga uni chaqish, saralashning o‘zi qanchalik mashaqqatli!

Tadbirkorning aytishicha, yeb bo‘lmaydigan mag‘izlar moyi parfyumeriya sanoatida keng qo‘llanadi. Ulardan ko‘plab kosmetika mahsulotlari ishlab chiqariladi. Uzum, olma urug‘ining yog‘i ham kosmetik mahsulotlar tarkibiga organik mahsulot sifatida qo‘shiladi. Nordon gilos danagi mag‘zining bir qismi kosmetikaga ketgani holda bir qismi Suriyaga yuborilishi ham bizni ajablantirdi. Arablar tayyorlaydigan kiselga o‘xshagan milliy ichimlikka aynan mana shu olcha danagi mag‘zi qo‘shilar ekan.

Iste’mol qilinmaydigan mag‘izlarning farmatsevtikada ham ulushi bor. Dorixonalarda achchiq bodom yog‘iga ko‘zingiz tushgan bo‘lsa kerak. Soch to‘kilishi va yana ko‘plab kosmetik nuqsonlarda qo‘llanadigan bu moyga ham talab katta. Shuning uchun mag‘izlar achchiq va shiringa ajratiladi. Korxonada qadoqlanayotgan olma, qovun urug‘ining ham inson salomatligiga foydasi haqida eshitganmiz.

Yana bir savol tug‘ilishi tabiiy. Yiliga ming tonna danakni korxona qayerdan oladi? Bunda qishloqma qishloq yurib, ro‘zg‘orda yig‘ilib qoladigan mahsulotlarni yig‘ib yuradigan ayollarning hissasi katta. Xonadonlardan ayirboshlash evaziga olingan bu mahsulotlarni ayollar maxsus qabul qilish markazlariga topshiradi. Tadbirkorlar esa o‘sha nuqtalardan o‘ziga kerakli mahsulotni olib ketaveradi.

Tumanda bunday markazlardan o‘ttiztacha bor. Barchasida yuqoridagi mahsulotlar topiladi, albatta. Zero, tadbirkor aytganidek, ilgari odamlar olxo‘ri danagini to‘plab, pechkaga yoqib yuborardi. Mahsulot olish tugul danakni chaqish ham hech kimning xayoliga kelmagan. Pechkada yoqish ham qulay bo‘lmagani uchun aksariyat hollarda danaklar chiqindiga chiqarilgan.

2018-yilda “Shakarbodom” oilaviy korxonasi tashlab yuboriladigan ushbu mahsulotlar mag‘zini ola boshladi. Ishning ko‘zini bilganlar esa danakni eksportbop tovarga aylantirib, 2 yevrodan 3,5 yevrogocha sotyapti.

Aholidan yetarlicha danak topildi ham, deylik. Qanday qilib mag‘zi butun holda chaqiladi? Bir hovuch danak chaqishning o‘zi bo‘lmaydi, axir!

— Birinchi o‘rinda danakni sifatli va sifatsizga ajratib olamiz. Masalan, qaynatilgan, mog‘orlagan danaklar bo‘lishi mumkin. Keyin achchiq-shirinligiga ko‘ra ajratamiz. Danakni bir ko‘rishda biladigan mutaxassis ayollarimiz bor, — dedi Avazxon A’zamov. — Mayda va yirikligiga ko‘ra ajratilgan danaklar o‘lchamini qayta-qayta hisoblab, maxsus uskunalar yordamida chaqib olamiz. Texnikalarimizning bir qismi mahalliy, bir qismi Turkiya va Erondan keltirilgan. Danaklar chaqilgach, hosil bo‘lgan aralashmadan po‘choq olib tashlanadi. Bunda maxsus jihoz va kasanachilardan foydalanamiz. Shu tariqa mag‘izlar korxonamizda qayta saralanadi. Har kuni yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga harakat qilamiz. O‘tgan yildan boshlab uzum urug‘ini eksport qilyapmiz. Avval qovun va olma urug‘i bor edi. Bir-ikkita firmalar bilan Yevropaga o‘rik qoqisi namunalarini jo‘natdik. Mahsulot hamkorlarimizga ma’qul keldi. Endi narx-navo, qayta ishlash masalalari bo‘yicha muzokara qilyapmiz.

Tadbirkorning katta o‘g‘li Polshada menejment yo‘nalishi bo‘yicha o‘qib keldi. Hozir u otasining qabatiga kirib, ishonchli dastyorga aylangan. Qisqasi, korxonaning kelajagi porloq.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri









MANGU E‘ZOZGA MUNOSIB KASB



Shuhrat SIROJIDDINOV,
akademik

Boshlanishi 1-betda

Hazrat Navoiy aytganidek, bir harf o‘rgatishga sarf bo‘lgan ranj-mehnat haqini ming ganj bilan ham ado etib bo‘lmaydi. Hayotdagi har bir ezgulik, har bir kashfiyot va yutuq zamirida o‘qituvchining mehnati va bardoshi mujassam.

Inkor qilib bo‘lmas haqiqat

Xizmat taqozosi bilan viloyatlarga chiqqanimda, albatta, maktablarga borishga, o‘qituvchilar bilan yaqindan suhbatlashishga intilaman. Ulardan bugun yurtimizda kechayotgan yangilanishlarga munosabatini, kayfiyatini bilgim keladi. Ayniqsa, yosh o‘qituvchilarni to‘plab, alohida gaplashaman. Ulardagi shijoat, dadillikni ko‘rib sevinaman. Yutuqlarini to‘kib solishi, ko‘zga tashlangan kamchiliklarni ochiq-oydin aytishi, muammolarni yechimi bilan muhokama maydoniga olib chiqishidan ta’lim sohasidagi islohotlar natija berayotgani, oxirgi yillarda oliy ma’lumot olib maktabda ishlayotgan yosh pedagoglar bundan o‘n yillar ilgarigi pedagoglarimizdan global dunyoqarashi, sog‘lom fikri, o‘z kasbi takomiliga jiddiy yondashuvi bilan farqlanib borayotganidan qoniqish tuyaman.

Qariyb yarim asrga yaqin umrim ta’lim sohasida o‘tdi. Shu yillar davomida ta’lim tizimining turli bo‘g‘inlarida, turli bosqichlarda va turli lavozimlarda ishladim. Pedagoglik kasbining achchiq-chuchugini totdim. Sohada orttirgan tajribam va kuzatishlarim asosida bir hayotiy qonuniyatni inkor etib bo‘lmasligini tushundim. O‘qituvchi o‘z kasbini tirikchilik manbai sifatida emas, yoshlarga bilim berish hamda ma’rifat tarqatish orqali asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan an’ana va udumlar, qadriyatlar, odob-axloq masalalarini o‘z qaramog‘iga topshirilgan yoshlar ongiga singdirishga mas’ul deb bilmas ekan, millatning ham, davlatning ham zavoliga sabab bo‘ladi. O‘qituvchining mehnati qadrlanmasa, ta’lim-tarbiya ishlari rag‘batlantirilmasa va bu jarayon bir yil emas, balki o‘n yillarga cho‘zilsa, millat avval savod, keyin madaniyat, undan so‘ng mehr-oqibat tushunchasidan mosuvo bo‘lib, parokandalik botqog‘iga tobora cho‘kib boraveradi. Biz mustaqillikning muayyan yillarida ana shu ijtimoiy inqirozning guvohi bo‘ldik. Qaysi sohaga tekin ishchi kuchi kerak bo‘lsa, darrov o‘qituvchilar va o‘quvchi-talabalar jalb etilardi. Muallim darsini o‘tib-o‘tmay, paxta dalasiga borardi. Turli majburiy-ixtiyoriy hasharlardan ta’lim sohasi vakillari aslo chetda qolmasdi.

Bizning avlod buni yaxshi eslaydi. O‘quvchi yoxud talabaga paxta kunlik terim normasini bajartira olmagan maktab, kollej va oliy o‘quv yurti rahbarlarining haqoratlanishi ham, hashardagi o‘qituvchining ustida qamchisidan qon tomib turgan hokimlik vakillarining bepisand talabchanligi ham hali-hanuz ko‘z o‘ngimizda. Bechora o‘qituvchilar — dars qolib, yuqori tashkilotlarning turli topshiriqlarini bajarish bilan kunni kech qilganlar, darsga tayyorlanish o‘rniga qog‘ozlarga ko‘milib hisobot yozish bilan tunlarni bedor o‘tkazganlar ham bugun o‘sha mash’um kunlar tarixda qolganidan xursand.

Ba’zilari fanini juda yaxshi bilardi. Ba’zilari bolalar bilan ishlashning o‘ziga xos yo‘llarini bilar edi. Yana ayrimlari ilm qilishni, kitob yozishni, tadqiqot bilan shug‘ullanishni istardi. Lekin tirikchilik majburiyati oldida bu istaklar chekinardi. Maosh kam edi. Oila boqish, farzandini o‘qitish, uy-ro‘zg‘orni yuritish tashvishi bilan ko‘plab yaxshi mutaxassislar boshqa sohalarga ketib qoldi.

Ustozni e’zozlagan jamiyat ravnaq topadi

Davlat va hukumat ta’lim sohasi tanazzulining asl sabablarini yaxshi bilardi. Biroq davlat iqtisodiy siyosatidagi kamchiliklar, noto‘g‘ri tashlangan qadamlar, sovet tuzumidan meros qolgan boqimandalik kayfiyati, davlat va jamiyat boshqaruvining nomukammal tizimi asoratlari va yana ko‘pdan ko‘p omillar maktab va oliy o‘quv yurtlari pedagog-o‘qituvchilari hamda o‘quvchi-talabalari zimmasiga og‘ir yuk bo‘lib tushdi. Prezidentimiz o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan bir yirik yig‘ilishda pedagoglarning maqomini ko‘tarish, bu kasbni jamiyatdagi eng obro‘li ishga aylantirish necha yillardan beri qalbidan chuqur joy olgan orzusi bo‘lganini ochiq aytib, ta’limni davlat siyosatining eng muhim, hal qiluvchi yo‘nalishiga aylantirishga qattiq kirishgani va milliy taraqqiyot strategiyamiz asosida ta’lim-tarbiya tizimida, tom ma’noda, tarixiy ishlarni amalga oshirish rejasini e’lon qilgan edi.

Mamlakatimizda islohotlar boshlangan ilk kunlardan e’tiboran, birinchi navbatda, o‘qituvchilarni, bolalar va ayollarni majburiy mehnatdan ozod qilishga kirishildi.

O‘tgan yillarda sohaga oid ko‘plab qonun, farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi huquqiy baza mustahkamlandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o‘qituvchining maqomi alohida belgilab qo‘yildi. Bu o‘qituvchilar va ustoz-murabbiylarning qadrini ko‘tarish barobarida, ularning bor bilim va kuch-g‘ayratini yoshlarga har tomonlama munosib ta’lim-tarbiya berishga yo‘naltirishiga katta rag‘bat berdi. O‘z navbatida, ta’limning milliy maqsadlarga erishishning ustuvor yo‘nalishlari qatoriga ko‘tarilishi va pedagog sha’ni hamda obro‘sini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati kelajak hayotimizda, yosh avlodning jamiyatning yetakchi kuchiga aylanishida o‘qituvchi salohiyati ustuvor ahamiyat kasb etishi zarurligi e’tirofi bo‘ldi.





2024-yil 1-fevraldagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun soha uchun muhim huquqiy asos yaratdi. Unda pedagogning huquqlari, majburiyatlari va faoliyatining asosiy kafolatlari belgilandi. Muallimning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasiga olindi. O‘qituvchilarning huquq va majburiyatlari tartibga solindi. Ularning kasbiy faoliyati qo‘llab-quvvatlandi. Pedagoglarni o‘z kasbiy faoliyatidan boshqa ishlarga jalb qilish, belgilangan xat-hujjatlardan tashqari hisobot va ma’lumotlar tuzishni talab qilish, ishini asossiz tekshirish, yozma roziligisiz qo‘shimcha ishlarga jalb qilish, ish haqidan majburiy-ixtiyoriy pul ushlab qolish, turli bahonalar bilan pul yig‘imlarini tashkil etish qonun yo‘li bilan taqiqlandi.

Qonun o‘qituvchilarning ijtimoiy mavqeini va o‘z ishiga ishonchini sezilarli darajada mustahkamladi.

Rag‘batlantirish tizimi amalda

Inson qadrini ko‘tarishga qaratilgan ulkan ishlar doirasida o‘qituvchilikni jamiyatdagi eng obro‘li kasblardan biriga aylantirish, o‘qituvchi va murabbiylar mehnatini munosib baholash va rag‘batlantirishga alohida ahamiyat qaratildi.

Pedagoglarning mehnatiga haq to‘lash tizimida ham yangi yondashuv shakllandi. Mehnat samaradorligi va ilmiy faoliyatiga qarab qo‘shimcha va ustamalar belgilash tartibi joriy etildi. Maktab ta’limi tizimida 2026-yildan 24 ming 289 pedagog 10 million so‘mdan 20 million so‘mgacha ish haqi olmoqda. Bugun o‘qituvchilarning ish haqi 2016-yildagiga nisbatan 2,5 barobar, oliy ta’lim tizimida professor-o‘qituvchilarning oylik maoshi 4-5 karra oshirildi. Davlatimiz rahbarining kamida 15 yillik ish stajiga ega oliy toifali pedagoglarga ipoteka krediti boshlang‘ich badalining 25 foizini qoplab berish, o‘qituvchilarga zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash uchun kompyuter xaridiga 10 million so‘mgacha imtiyozli kredit ajratish kabi tashabbuslari bugun o‘z amaliy ifodasini topmoqda.

Bugun davlat pedagoglikni tanlagan insonning nafaqat o‘ziga, balki oilasiga ham ijtimoiy tayanch bo‘lishga intilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 17-sentabrdagi qarori bilan 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab pedagoglarning oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirgan va ta’lim olayotgan farzandlari uchun to‘lov-kontrakt summasiga 30 foiz miqdorida chegirma berish tartibi joriy qilindi. Eng muhimi, bu mablag‘ davlat byudjeti hisobidan qoplanadigan bo‘ldi.

Bundan tashqari, yangi tartibning raqamlashtirilgani ham e’tiborga loyiq. Pedagogning farzandi maxsus axborot tizimi orqali ariza beradi. Ma’lumotlar idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali tekshiriladi. Shartnoma elektron shaklda rasmiylashtiriladi. Ariza ikki kunda ko‘rib chiqiladi.

Davlat tomonidan o‘qituvchining farzandi kamolotiga alohida e’tibor berilishi ushbu ulug‘ kasbga oliy darajadagi ehtirom ramzi sifatida tahsinga loyiq jihatdir. Bu davlatning pedagog oilasi, mehnati va farzandlari kelajagiga befarq emasligini ko‘rsatadi.

Malaka oshirish — davr talabi

Davlatimiz o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy o‘sishi uchun imkoniyat yaratish, munosib mehnat sharoitini ta’minlash va nufuzini oshirish bo‘yicha keng qamrovli ishlarni qilib kelmoqda. Endi o‘qituvchi faqat bilim berish bilan cheklanishi yetarli emas. Yoshlarning mustaqil fikrli bo‘lishiga erishish uchun tanqidiy fikrlashni o‘rgatadi. O‘quvchilarda axborot bilan ishlash, mas’uliyat bilan to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, zamonaviy muammolarni xolis baholash ko‘nikmasini shakllantiradi. Bularning barchasi o‘qituvchidan keng dunyoqarashli, siyosiy yetuk, ma’nan yuksak, psixolog va albatta, metodika masalalarida ancha ilg‘or bo‘lishni talab qiladi.

Ta’lim sifatini ta’minlash va pedagoglar malakasini oshirish uchun maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini qayta tayyorlash, malakasini oshirish bo‘yicha yagona hamda vertikal tizim yaratildi. Malaka oshirish va qayta tayyorlashning an’anaviy va muqobil hamda dual shakllari, jumladan, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasi joriy etildi. Uzluksiz kasbiy ta’lim, pedagoglarni attestatsiyadan o‘tkazish, malaka toifasini berish, maktabgacha va maktab ta’limini boshqarish kabi dasturiy platformalar yo‘lga qo‘yildi.

Natijada oxirgi yillarda umumiy o‘rta ta’lim tizimida pedagog kadrlarning sifat tarkibi yaxshilandi. Jumladan, 2016-yilda umumta’lim maktablaridagi pedagoglar soni 389 ming 740 nafarni, shundan oliy toifalilar 15 ming 807 nafarni tashkil etgan. Bugun esa pedagoglar 547 ming 990 nafarni, oliy toifalilari esa 73 ming 217 nafarni tashkil etmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 5-fevraldagi farmoni bilan 2026/2027-o‘quv yilidan davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o‘rta maxsus ma’lumotli pedagog kadrlar uchun tegishli oliy ta’lim tashkilotlarida dual ta’lim shaklida to‘lov-shartnoma asosida bakalavrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Endi oliy ma’lumot olishni istagan tarbiyachi haftada bir kun pedagogika universitetida o‘qib, bakalavr diplomini olishi mumkin. Qolgan besh kun o‘zi ishlayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotida auditoriyada olgan bilimini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Oliy ta’lim tizimida professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish ham davlatimiz e’tiborida bo‘lib kelayotgan dolzarb masalalardan. Malakali pedagog kadrlarsiz ta’lim sifatini oshirish mushkul. Xalqaro ta’lim standartlari, jahondagi ilg‘or o‘qitish metodikalaridan xabardorlikka yosh milliy mutaxassislarni tayyorlashning zaruriy sharti sifatida qaralishi natijasida oliy ta’limda sifat darajasi keskin o‘sib bormoqda. O‘tgan yillarda oliy ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorlik va grant dasturlari doirasida 12 mingdan ziyod professor-o‘qituvchi xorijdagi oliy ta’lim hamda ilmiy muassasalarda malaka oshirib qaytdi. Minglab chet ellik mutaxassislarning oliy o‘quv yurtlarimizda o‘quv jarayoniga jalb etilgani ham pedagoglarimizning o‘zaro tajriba almashishi hamda G‘arb ilg‘or o‘qitish metodikalarini amaliyotga tatbiq etishga ko‘maklashmoqda.

Xulosa

Bugun dunyo keskin o‘zgaryapti. Kecha yaxshi deyilgan ko‘plab mutaxassisliklar sun’iy intellekt imkoniyatlari qarshisida o‘z mavqeini yo‘qotmoqda. Biroq sun’iy aql o‘qituvchi beradigan individual ta’lim, ma’naviy tarbiya va o‘quvchida badiiy-hissiy idrokni shakllantira olmaydi. Shunday ekan, muallimlik zaruriy va doim e’zozlanadigan kasb maqomini saqlab qoladi. Ta’limga juda katta mablag‘ ajratilmoqda. Bu kelajakka sarflangan investitsiyadir. Pedagog maqomi qonun bilan himoyalanmoqda. Uning kasbiy rivojlanishi uchun tizim yaratilmoqda. Mehnati uchun ustamalar joriy qilinmoqda. Oilasiga ta’lim olishda ko‘mak berilmoqda. Prezidentimizning “Ta’lim! Ta’lim! Ta’lim! Muallim! Muallim! Muallim!” degan so‘zlarida katta ma’no bor. Zotan, insonning ongi, dunyoqarashi o‘zgarmasa, jamiyat o‘zgarmaydi. Jamiyat o‘zgarmasa, taraqqiyot ham bo‘lmaydi. O‘qituvchi va murabbiylar yosh avlodning bilim va tafakkuriga, tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsata oladigan eng kuchli ziyolilar qatlamidir. Ular yoshlarning fikri, dunyoqarashi to‘g‘ri yo‘nalishda shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ustozning nufuzi baland bo‘lgan jamiyatda ta’limning qadri ham yuksak bo‘ladi. Ta’limning maqomi yuqori bo‘lgan jamiyatning kelajagi porloq bo‘lishi aniq.

Maktabda o‘qib yurgan paytlarim ustozlarim Sobir Olimhomidov, Omina Ashurovaning dars o‘tishi, bolalarga berayotgan cheksiz va beminnat mehrini ko‘rib hayratlanardim. Hech bir o‘quvchi ularning e’tiboridan chetda qolib ketmasdi, barcha birdek aziz edi. Shuning uchun ham ularga juda-juda havas qilardim va men ham shunday ustoz bo‘lsam qaniydi, derdim. Xayriyat, niyatimga yetdim, o‘zim ham ustoz bo‘ldim.



Umida FAYZIYEVA,
Buxoro viloyati Peshku tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi,
“Yil o‘qituvchisi” tanlovi g‘olibi

O‘QITUVCHILIGIM YANGI UY SOTIB OLISH ORZUMNI RO‘YOBGA CHIQARDI

Biroq ustozlik sharafiga erishish, barchaga teng mehr ulasha olish ham men o‘ylagandek oson emas ekan. Institutni endigina tamomlab kelgan kezlarim o‘quvchilar oldida rosa hayajonlanar edim. Men bularga dars bera olamanmi, mehrini qozonarmikanman, ustozlarimdek bo‘la olamanmi o‘zi degan xavotir chulg‘ab olardi. 16 yildan beri o‘qituvchiman. Shogirdlarim berayotgan bilimim, ulashayotgan mehrimdan minnatdorligini aytganida, ustozlik maqomiga erishayotganimni his qilaman.

Turmush o‘rtog‘im ham o‘qituvchi. Ilgari ikkalamiz oladigan maoshimiz ro‘zg‘orimizga yetmasdan qo‘shimcha ishlashga majbur bo‘lar edik. Buning ustiga, paxta yig‘im-terimiga qatnashardik. Ko‘plab majburiy mehnat turlariga jalb qilishardi, borishga majbur edik.

Prezidentimiz ilk bor faoliyat boshlagan paytlaridanoq ta’limga alohida e’tibor qaratib, o‘qituvchining oyligini ming dollarga yetkazishga va’da berdi. O‘shanda qanchalar xursand bo‘lganimizni ko‘rsangiz edi. Biz, ustozlarning yana bir eng katta yutug‘imiz — “Pedagog maqomi to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi bo‘ldi. Aslida, bundan tashqari ham ta’limni rivojlantirish, o‘qituvchilarga munosib sharoit yaratish bo‘yicha qanchadan qancha qonun hujjatlari imzolanyapti. Chekka tumanlarda ixtisoslashtirilgan maktablar ochilib, oylikdan oylikka bazo‘r yetib oladigan biz kabi o‘qituvchilarga katta imkoniyat yaratildi. Nufuzli maktabga sinov asosida ishga qabul qilindik. Ruhimizga haqiqiy ish kayfiyati ko‘chdi. Axir paxta terimi, majburiy mehnat bo‘lmaganidan keyin kasbiga o‘zini bag‘ishlaydi-da odam. Pedagogik jamoamizda barcha birdek yuqori marralarga intiladi. Tinimsiz harakat, izlanishda bo‘lib, milliy, xalqaro sertifikatlarga erishgan, 70 foizli ustama, yana turli imtiyozlar bilan maoshini 1000, 1500, hatto 2000 dollargacha yetkaza olganlarga rosa havas qilgandim. Bugun o‘zim ham ularning safiga qo‘shilganimdan behad minnatdorman. Ayni paytda 2000 dollarga yaqin maosh olyapman.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan butunlay boshqacha shaklda tashkil etilgan “Yil o‘qituvchisi” tanlovi esa hayotimni tubdan o‘zgartirib yubordi. Tanlov g‘oliblariga BHMning 1400 baravari miqdorida pul mukofoti berilishini eshitib, men ham tanlovda qatnashib, shu mukofotni olsam edi deb niyat qilgandim. Tanlovning barcha bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tdim, yuqori ball to‘plagan bo‘lsam-da, mukofotni qo‘lga kiritganim haqida xabar qilishganida, juda qattiq hayajonlandim. O‘zimga o‘zim nahotki shu natijaga erishdim, nahotki orzumga yetdim deb savol beraverdim. Quvonchim ichimga sig‘may,



xushxabarni birinchi bo‘lib dadamga yetkazdim. Zero, anchadan buyon shahar markazidan zamonaviy qulayliklarga ega uy sotib olishni orzu qilib yurganimni yaqinlarim bilar edi. Ular ham o‘zimdan ko‘proq quvonyapti, o‘qituvchining mehnati qadrlanadigan kunlarga yetganimizga shukronalar aytyapti. O‘zim esa ilm ahliga shunday imkoniyatlarni yaratib bergan, ularning obro‘yini, mavqeini ko‘targan Prezidentimizga cheksiz minnatdorligimni bildiraman.

O‘qituvchining qanday ustoz ekani shogirdlari yutuqlari bilan o‘lchanadi. O‘quvchilarim bir necha yillardan buyon tuman, viloyat olimpiadalarida qatnashib, faxrli o‘rinlarni olib kelmoqdalar. Kelajakda bu natijalarning yanada yuqori bo‘lishini, ta’lim tizimi rivojiga kuchim yetganicha hissa qo‘shishni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘ydim.



O‘ZBEK SHAXMATINING OLTIN AVLODI

Shaxmat tarixida alohida shaxslar mahorati va butun bir mamlakat shaxmat maktabi salohiyati har doim ham bir xil natijalarda namoyon bo‘lavermaydi. Kuchli grossmeyster yetishtirish uchun zarur sharoit bilan xalqaro maydonda muntazam yuqori natija ko‘rsatadigan terma jamoani shakllantirish o‘rtasida jiddiy farq bor. Birinchisi iste’dodli shaxsning izlanishi, tayyorgarligi va imkoniyatlariga ko‘proq bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi turli avlod vakillari tajribasini birlashtirishni, uzluksiz raqobat muhitini va uzoq muddatli tayyorgarlik tizimini talab etadi. Shu jihatdan mamlakat shaxmatining haqiqiy salohiyatini baholashda alohida sportchilar yutuqlari bilan bir qatorda jamoaviy musobaqalardagi natijalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.



Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

To‘rt yil ichida ikki bor olimpiada chempioni bo‘lish va yana bir musobaqada bronza medalni qo‘lga kiritish mamlakat shaxmatidagi so‘nggi o‘zgarishlarni kengroq o‘rganish uchun jiddiy asos beradi. Bu natijalar ortida qanday tayyorgarlik tizimi, shaxmatchilar o‘rtasidagi qanday raqobat muhiti va jamoaviy ishlash tajribasi turgani haqidagi savollar tabiiy ravishda tug‘iladi.

Ayni paytda O‘zbekiston shaxmatining bugungi taraqqiyotini uning tarixidan ajratib o‘rganib bo‘lmaydi. Mamlakatimiz hududida shaxmatning tarqalishi, turli tarixiy davrlardagi mavqei va bu o‘yinga munosabat haqidagi ma’lumotlar qadimiy arxeologik topilmalar hamda yozma manbalarda saqlanib qolgan.

Surxondaryo va Samarqanddan qariyb ikki ming yillik tarixga ega shaxmat toshlari topilgan. Xususan, 1972-yilda Dalvarzintepadagi arxeologik qazilmalar vaqtida Kushon davri, ya’ni I-II asrlarga oid shaxmat donalari, 1977-yilda Afrosiyobda o‘tkazilgan tadqiqotlar chog‘ida esa VII-VIII asrlarga taalluqli 7 ta shaxmat donasi topilgan.

Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn”, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Lison ut-tayr”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” kabi asarlarida shaxmat, ya’ni shatranjga oid qimmatli ma’lumotlar bor.

Samarqandda o‘tkazilgan musobaqalarda g‘olib chiqqan Ali Shatranjiy (Oloviddin at-Tabriziy) shatranj haqida kitob yozib, XIV asrgacha O‘rta Osiyoda yashagan bir qancha oliyalar, ya’ni grossmeysterlar haqida muhim ma’lumotlar bitib qoldirgan. U Sohibqironning o‘zi bilan shatranj o‘ynab turgan.

Nihoyatda o‘tkir xotira va teran aql-idrok sohibi bo‘lgan Amir Temur shaxmat o‘yinida ham yuksak mahoratga erishgan. Ulug‘ Sohibqiron bobomiz shaxmatni shunchaki vaqtni dilxushlik bilan o‘tkazish va hordiq chiqarish o‘yini emas, balki puxta geosiyosiy hamda amaliy rejalar tuzish uchun aqlni charxlash mashg‘uloti deb bilgan.

Asrlar davomida shakllangan ushbu aqliy musobaqa zamonaviy shaxmatda yanada murakkablashdi. Debyut nazariyasi rivoji, superkompyuter tahlili va raqib partiyalarini chuqur o‘rganish imkoniyatlari professional shaxmatchilarning tayyorgarlik usullarini tubdan o‘zgartirdi. Shunga qaramay, musobaqa davomida yuzaga keladigan barcha vaziyatlarni oldindan hisoblab chiqishning imkoni yo‘q. Vaqt tanqisligida qaror qabul qilish, kutilmagan yurishlarga javob topish, o‘z xatosi oqibatlarini kamaytirish va raqibning psixologik bosimiga bardosh berish ham yuqori darajadagi mahoratni talab etadi. Bu talablar shaxmatchi yakka tartibda ishtirok etadigan musobaqalarda, avvalo, uning shaxsiy natijasi bilan bog‘liq bo‘lsa, jamoaviy bahslarda har bir qarorning ahamiyati ancha kengayadi.

Besh shaxmatchining har biri o‘ziga xos fikrlash tarzi, tajribasi, fe’l-atvori va tavakkal qilish chegarasiga ega. Ular bir xil vaziyatda turlicha qaror chiqarishi, bir xil xavfni turlicha qabul qilishi mumkin. Shunga qaramay, jamoaviy musobaqada ularning har biri o‘z imkoniyatlarini umumiy maqsad bilan muvofiqlashtirishiga to‘g‘ri keladi. Ba’zan bir shaxmatchining murakkab vaziyatda durangni saqlab qolishi sherigining tavakkal qilib g‘alabaga intilishiga imkon yaratadi. Boshqa bir vaziyatda esa jamoadoshining mag‘lubiyati qolganlar zimmasiga qo‘shimcha mas’uliyat yuklaydi. Shu ma’noda, shaxmat olimpiadasi individual aql va jamoaviy iroda o‘rtasidagi murakkab munosabatni namoyon etadi.

Bunday musobaqada g‘alaba qozonish uchun har bir shaxmatchining kuchli bo‘lishi kifoya qilmaydi. Jamoa o‘z a’zolari imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi, muvaffaqiyatsizlikdan keyin ham umumiy maqsadga sodiq qolishi zarur. Eng muhimi, har bir shaxmatchi o‘z partiyasining ahamiyatini jamoadoshlari olib borayotgan kurash bilan bog‘liq holda anglaydi.

O‘zbekiston terma jamoasining Samarqand olimpiadasidagi ishtirokiga ham shu jihatdan qarash o‘rinli. O‘z maydonida, muxlislar e’tibori ostida kechgan musobaqada shaxmatchilar oldida har bir turda munosib natija qayd etish bilan birga umumiy hisobda yetakchilik uchun kurashish vazifasi turgan edi. O‘n bir turlik bahslar yakunida erishilgan natija esa jamoaning musobaqa davomidagi tayyorgarligi, tanlagan strategiyasi va har bir shaxmatchining umumiy hisobga qo‘shgan hissasini bir butun holda tahlil qilish imkonini berdi.

Samarqandda 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi o‘z nihoyasiga yetdi. Yopilish marosimida O‘zbekiston-1 erkaklar milliy jamoasiga oltin medallar hamda turnir g‘oliblariga beriladigan bosh sovrin — Gamilton kubogi tantanali tarzda topshirildi.


Mukofotlarni topshirish uchun sahnaga FIDE prezidenti Timur Turlov, shuningdek, Vishvanatan Anand hamda Ozarbayjon shaxmat federatsiyasi rahbari Mahir Mamedov ko‘tarildi. Chempion jamoa tarkibidan Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov, Nodirbek Yoqubboyev, Shamsiddin Vohidov va Muhiddin Madaminov o‘rin oldi. Terma jamoa kapitani — Rustam Qosimjonov.

O‘zbekiston so‘nggi tur nihoyasiga yetmasidanoq chempionlikni naqd qilib qo‘ydi. Jamoa Ukrainani 2,5:1,5 hisobida mag‘lub etdi, bosh ta’qibchi Hindiston esa Vengriya bilan 2:2 hisobida durang o‘ynadi.

Marosim 27-sentabr kuni Silk Road Samarkand majmuasidagi “Boqiy shahar” amfiteatrida bo‘lib o‘tdi va mushakbozlik hamda dronlar shousi bilan yakunlandi.

Nodirbek Abdusattorov birinchi doskada oltin medalni qo‘lga kiritdi. U 11 partiyada 8,5 ochko to‘plab, birorta ham mag‘lubiyatga uchramadi. Uning performansi 2869 ballni tashkil etib, o‘z doskasida eng yaxshi natija bo‘ldi.

Javohir Sindorov ikkinchi doskada bronza medalga sazovor bo‘ldi. U 10 partiyada 7 ochko jamg‘arib, 2797 performans qayd etdi. Bu doskada oltin medal xitoylik Vey Iga, kumush esa niderlandiyalik Yorden van Forestga nasib etdi.



Nodirbek Yoqubboyev uchinchi doskada kumush medal sovrindori bo‘ldi. U 10 ta o‘yinda 7,5 ochko olib, 2774 performans ko‘rsatdi. Bu doskada germaniyalik Frederik Svane g‘olib chiqdi, bronza esa armanistonlik Shant Sargsyanga nasib etdi.

O‘rtacha 2532 reyting bilan 30-raqam ostida boshlagan O‘zbekiston ikkinchi milliy jamoasi Olimpiadani 15 ochko bilan 18-o‘rinda yakunladi. O‘zbekiston-3 jamoasi esa 2424 reyting bilan 55-raqamda start olib, 13 ochko bilan 60-o‘rinni egalladi.

Ayollar bahsida O‘zbekiston asosiy milliy jamoasi 2345 reyting bilan 13-o‘rindan start olib, turnirni 15 ochko bilan aynan 13-o‘rinda yakunladi.

O‘zbekiston-2 jamoasi 2143 reyting bilan 43-o‘rinda boshlab, 14 ochko to‘plagan holda 35-o‘ringa ko‘tarildi. Uchinchi jamoa esa 2021 reyting bilan 65-o‘rinda start olib, 13 ochko bilan 47-pog‘onadan joy oldi.

Marosim avvalida, shuningdek, beshta reyting toifasi (A dan E gacha) bo‘yicha eng yaxshi jamoalarga ham mukofotlar topshirildi. O‘zbekiston ayollar ikkinchi milliy jamoasi “B” toifada uchinchi o‘rinni egalladi.

Jamoalarning yakuniy natijalari bilan birga, shaxsiy ko‘rsatkichlar ham alohida e’tiborga molik. Shu jihatdan O‘zbekiston asosiy milliy jamoasi a’zolarining alohida natijalarini ko‘rib chiqish ularning umumiy muvaffaqiyatga qo‘shgan hissasini aniqroq baholash imkonini beradi.

Javohir Sindorov (reytingi 2778) milliy jamoalarning ikkinchi juftligi bahsida ukrainalik eng mashhur shaxmatchilardan biri — 57 yoshli Vasiliy Ivanchuk (2630) bilan kuch sinashdi. Bahs durang bilan yakunlandi. So‘nggi tur juftliklari aynan shu tartibda shakllantirilgan edi. O‘z uyidagi Olimpiada yakunlariga ko‘ra, Sindarov 10 ta partiyada 7 ochko jamg‘ardi — beshta g‘alaba, to‘rtta durang va bir mag‘lubiyat. Grossmeyster birinchi turni o‘tkazib yubordi. Turnirdagi yagona mag‘lubiyatini u to‘qqizinchi turda AQSHga qarshi uchrashuvda Uesli Sodan qabul qilib oldi.

Birinchi doskada Nodirbek Abdusattorov (2762) Igor Kovalenko (2642) bilan durang o‘ynadi. Abdusattorov jami 11 ta partiyaning barchasida ishtirok etdi va biror marta ham mag‘lubiyatga uchramadi. Uning hisobida 8,5 ochko bor — 6 ta g‘alaba va 5 ta durang. So‘nggi turga qadar u, jumladan, sobiq jahon chempioni Din Lijen va Amerikaning eng kuchli grossmeysterlaridan biri Fabiano Karuanani yengishga muvaffaq bo‘ldi. Uning Karuana ustidan qozongan g‘alabasi to‘qqizinchi turda O‘zbekistonning AQSHni mag‘lub etishiga zamin yaratdi.

Uchinchi doskada Nodirbek Yoqubboyev (2685) Igor Samunenkov (2608) bilan durang o‘ynadi. U Olimpiadani 10 ta partiyada 7,5 ochko bilan yakunladi — oltita g‘alaba, uchta durang va bir mag‘lubiyat. Yoqubboyevning Hindiston bilan o‘yinda Nihal Sarin, Xitoy bilan bahsda Yuy Yan’i hamda AQSHga qarshi uchrashuvda Xans Nimann ustidan qozongan g‘alabalari, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etdi. Hindistonga qarshi bellashuvda aynan uning g‘alabasi yagona natijaviy partiya bo‘ldi va O‘zbekistonga 2,5:1,5 hisobidagi g‘alabani taqdim etdi.

To‘rtinchi doskada Muhiddin Madaminov (2611) Roman Dextyaryovni (2508) mag‘lub etdi. Bu Madaminov uchun Olimpiadadagi yettinchi partiya bo‘ldi. U musobaqani mag‘lubiyatsiz yakunlab, 5,5 ochko jamg‘ardi — to‘rtta g‘alaba va uchta durang.

So‘nggi turda bahsga kirishmagan Shamsiddin Vohidov (2654) oltita partiyada 4 ochko to‘pladi: uch marta g‘alaba qozondi, ikki marta durang o‘ynadi va bir bor mag‘lubiyatga uchradi. Shu tariqa O‘zbekiston asosiy terma jamoasining besh shaxmatchisi butun Olimpiada davomida doskalarda jami 33 ochko jamg‘ardi.

Jamoa turnirdagi yagona mag‘lubiyatni sakkizinchi turda Germaniyadan qabul qilib oldi — 1,5:2,5. Biroq ertasi kuniyoq O‘zbekiston AQSHni 2,5:1,5 hisobida mag‘lub etdi, so‘ngra ungacha mag‘lubiyat nimaligini bilmay kelayotgan Armanistonni 3,5:0,5 hisobida yutdi. So‘nggi tur oldidan O‘zbekiston 18 ochko bilan yakka peshqadam edi va Hindistondan bir ochko oldinda borayotgandi. Hindiston — Vengriya uchrashuvi natijasidan qat’i nazar (bu bahs 2:2 hisobidagi durang bilan yakunlandi), terma jamoaga oltin medalni naqd qilish uchun Ukraina ustidan g‘alaba qozonishning o‘zi kifoya edi.

O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi Javohir Sindorov Samarqanddagi shaxmat olimpiadasining hal qiluvchi turidan so‘ng o‘yin, jamoaning chempionligi va kelgusi maqsadlari haqida fikr bildirdi. Sindorov so‘nggi turda Ukraina vakili Vasiliy Ivanchuk bilan durang o‘ynadi. Uning aytishicha, partiya murakkab kechgan, biroq jamoaviy vaziyatni hisobga olib, durang natijasi O‘zbekiston uchun muhim bo‘lgan.

— Durang qilsam, jamoaviy g‘alabamiz deyarli aniq edi, — deydi Javohir Sindorov. — O‘yin juda ham murakkab kechdi. Qayerdadir sal noto‘g‘ri yurish qilib qo‘ydim, vaziyatim bir oz og‘irroq edi. Shunga qaramay, chiroyli himoyalanib, durangga olib bordim. Men o‘zimga bunday maqsad qo‘ygandim: durang qilsam, jamoaviy tarzda yutishimiz 99 foiz aniq edi. Bu amalga oshdi va bundan juda ham mamnunman. Ikkinchi marta olimpiadani yutishimizdan xursandman. Yurtimizda yutish baribir boshqacha. Biz bu musobaqani, haqiqatan, yuqori darajada o‘ynadik. Ko‘plab kuchli raqiblarga qarshi murakkab bahslarda g‘alaba qozondik. Endigi maqsad — jahon toji sari harakat qilish. Juda og‘ir turnir kechdi. Men sal charchab kelgan edim, ammo turnir davomida maksimal darajada formamga kirib, jamoam uchun borimni berishga harakat qildim. O‘ylaymanki, buni uddaladim. Nazarimda, jamoamiz dunyodagi eng ahil va eng kuchli jamoa. So‘nggi yillardagi eng katta musobaqalarda O‘zbekiston shaxmatchilari g‘alaba qozonib kelmoqda. Bu ko‘p narsaning isboti. Bundan ham ko‘proq g‘alaba qozonishga harakat qilamiz.

Javohir Sindorovning bu fikrlarida e’tiborga molik bir jihat bor. U o‘z partiyasidagi natijani boshidanoq jamoaning umumiy hisob-kitobi bilan bog‘lagan. Shaxmatchining shaxsiy imkoniyati, turnirdagi o‘rni va g‘alabaga intilishi hisobga olinsa, bunday qarorning ahamiyati yanada oydinlashadi. Ayniqsa, hal qiluvchi bahslarda o‘z o‘yinini jamoadoshlarining partiyalaridagi vaziyatga qarab boshqarish, zarur paytda tavakkaldan voz kechish ham katta tajriba talab etadi. Sindorovning so‘zlari O‘zbekiston terma jamoasi ushbu olimpiadada qanday tamoyilga tayanganini tushunishga yordam beradi. Shaxmatchilarning har biri o‘z taxtasida mustaqil qaror qabul qilgan bo‘lsa-da, bu qarorlarning ahamiyati yakuniy jamoaviy natija bilan belgilangan.

Sindorovning fikrlaridagi yana bir muhim jihat — uning navbatdagi maqsad sifatida jahon chempionligini tilga olgani.

Endi asosiy e’tibor Shveysariyaning Jeneva shahriga qaratiladi. Xalqaro shaxmat federatsiyasi tasdiqlagan so‘nggi taqvimga ko‘ra, Sindorov va amaldagi jahon chempioni Gukesh Dommaraju o‘rtasidagi bahs 22-noyabrdan 12-dekabrga qadar Koloni kommunasidagi Martin Bodmer jamg‘armasida o‘tkaziladi. Birinchi partiya 24-noyabrga belgilangan. Bu uchrashuv shaxmat tarixidagi eng yosh jahon chempionligi bahsi bo‘ladi: har ikki grossmeyster musobaqa boshlanganda 20 yoshda bo‘ladi. Hindistonlik Gukesh 2024-yilda Singapurda xitoylik Din Lijenni 7,5:6,5 hisobida yengib, 18 yoshida jahon chempioniga aylangan edi. Jenevada u ilk bor unvonini himoya qiladi.

Reglamentga muvofiq, jahon toji uchun bahs ko‘pi bilan 14 ta klassik partiyadan iborat bo‘ladi. Birinchi bo‘lib 7,5 ochko jamg‘argan shaxmatchi chempionlikni qo‘lga kiritadi. Agar asosiy partiyalar 7:7 hisobida yakunlansa, g‘olib qo‘shimcha tay-breyk bahslarida aniqlanadi. Bunday tartibda raqiblar bir-birining debyut tayyorgarligi, o‘yin uslubi va qaror qabul qilish xususiyatlarini chuqur o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bitta partiyada qo‘lga kiritilgan ustunlik yoki yo‘l qo‘yilgan xato keyingi uchrashuvlarda tanlanadigan strategiyaga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli uch haftaga yaqin davom etadigan mazkur bellashuvda nazariy tayyorgarlik bilan birga jismoniy chidamlilik, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va ruhiy barqarorlik ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston shaxmati uchun Jenevadagi uchrashuvning tarixiy ahamiyati ham shunda. Mamlakat terma jamoasi olimpiadada chempionlikka erishgan, alohida shaxmatchilarimiz esa nufuzli xalqaro turnirlarda o‘z salohiyatini namoyish etgan. Endi o‘zbekistonlik grossmeyster ilk bor mutlaq jahon chempioni unvoni uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri bahslashadi. Samarqanddagi g‘alaba Sindorovga ushbu uchrashuv arafasida qo‘shimcha ishonch berdi. Jahon toji uchun kurash esa uning shu paytgacha to‘plagan tajribasi va tayyorgarligini boshqa talablar asosida sinovdan o‘tkazadi. Bu sinov O‘zbekiston shaxmatining kelajakdagi imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarni yanada kengaytiradi. Kecha katta muvaffaqiyat sanalgan natijalar bugun yangi maqsadlarni belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qilyapti. Samarqandda qo‘lga kiritilgan jamoaviy g‘alabaning mantiqiy davomi jahon shaxmatining eng yuksak unvoni uchun kechadigan bahs bilan bog‘lanyapti.

Shu tariqa kechagi g‘alaba bugungi mas’uliyatga, bugungi muvaffaqiyat esa ertangi avlodning imkoniyatiga aylanadi. Milliy shaxmat maktabining haqiqiy qudrati ham ana shu davomiylikda — har bir avlod o‘zidan avvalgilar to‘xtagan nuqtadan yanada uzoqroqqa borishga intilishida namoyon bo‘ladi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-946.
29323 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Boboravshan G‘oziddinov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.